


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ANDIJON VILOYATI XALQ TA'LIMI  
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNI MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**Umumta'lim maktablarining  
mehnat ta'limi o'qituvchilari uchun**

**USLUBIY QO'LLANMA**

***6-sinf***



**ANDIJON**

### **Tuzuvchilar:**

- |            |                                                         |
|------------|---------------------------------------------------------|
| X.Nabiyeva | - AVXTXQTUMOI katta o'qituvchisi.                       |
| M.Artiqova | - Andijon shahar 31-maktab mehnat ta'limi o'qituvchisi. |

### **Taqrizchilar:**

- |                |                                                                           |
|----------------|---------------------------------------------------------------------------|
| A.Zaparov      | - ADU Mehnat ta'limi kafedrası dotsenti.                                  |
| M.Axmedov      | - AVXTXQTUMOI Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim kafedrası mudiri |
| S.Ubaydullayev | - ADU Mehnat ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi                         |

Ushbu qo'llanma Andijon xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2015-yil 30-dekabrdagi 13-sonli Qarori bilan ma'qullangan.

## SO`Z BOSHI

*Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan bilim samarasi past bo`lishi mumkin.*

*I.A.Karimov*

O`sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalari darajasida yuksak bilimli qilib o`qitish va tarbiyalash zarur. Shu sababli ham mamlakatimizda xalq ta`limiga katta e`tibor bermoqda. Shu jumladan o`quvchilarga mehnat ta`limi haqida ma`lumot berish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu qo`llanmada 6-sinflar uchun mo`ljallangan bo`lib kalendar mavzuiy ish reja va nazorat ishlari, texnologik xarita, 68-soatlik dars mashg`ulotiga mo`ljallangan ma`lumotlar batafsil keltirilgan. Pazandachilik asoslari, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi bo`yicha yetarlicha ma`lumot berilgan.

Ushbu qo`llanma umumta`lim maktablarining mehnat ta`limi o`qituvchilari maktab o`quvchilariga dars mashg`ulotlarini namunali tashkil qilishda foydalanishlari mumkin.

# Mehnat fanidan kalendar mavzuiy ish reja va nazorat ishlari,

## 6-sinf, I-IV chorak

Servis xizmati yo'nalishi (haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat)

| №     | Mavzu                                                                                                                                                                                                                                           | soat      | Kalendar vaqti<br>(Sinflar bo'yicha) |  |  | O'tilgan vaqti<br>(Sinflar bo'yicha) |  |  | Imzo |
|-------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|--------------------------------------|--|--|--------------------------------------|--|--|------|
|       |                                                                                                                                                                                                                                                 |           |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
|       | <b>Pazandachilik asoslari</b>                                                                                                                                                                                                                   | <b>18</b> |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
|       | <b>Umumiy tushunchalar</b>                                                                                                                                                                                                                      | <b>2</b>  |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 1-2   | Pazandachilik xonasini jihozlanishiga qo'yiladigan talablar. Sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari. Un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati                                                          | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
|       | <b>Asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanish</b>                                                                                                                                                                                       | <b>2</b>  |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 3-4   | Pazandachilik xonasida ishlash uchun sanitariya-gigiyena talablari. Oshxona asboblari metall, chinni, sopol, plastmassa, shisha idishlardan to'g'ri foydalanishning ahamiyati                                                                   | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
|       | <b>Pazandachilikda ishlatiladigan texnologik jihozlar va ulardan foydalanish</b>                                                                                                                                                                | <b>4</b>  |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 5-6   | Sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'liqlik elektr-pechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi.<br><b>1-nazorat ishi</b>                                                                                                  | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 7-8   | Qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan: ko'pirtirgich (mikser)ning turlari, tuzilishi, ahamiyati, undan foydalanish qoidalari                                                                                                   | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
|       | <b>Taomlar tayyorlash texnologiyasi</b>                                                                                                                                                                                                         | <b>10</b> |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 9-10  | Sut va sut mahsulot turlari. Achitilgan sut mahsulotlari sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish sharoiti va muddati. Amaliy mashg'ulot: tvoroznik, pudring tayyorlash va dasturxonga tortish tartib qoidalari                                     | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 11-12 | Un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati. Xamir turlari. Oshirma va oshirmasdan tayyorlanadigan xamirlar haqida ma'lumot. Amaliy mashg'ulot: Yog'li qatlanib, tayyorlangan xamirdan «somsa» pishirish.<br><b>2-nazorat ishi</b> | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 13-14 | O'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari. Amaliy mashg'ulot: Milliy taomlardan «Mastava» tayyorlash                                                                                   | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |
| 15-16 | O'zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish tartibi. Amaliy mashg'ulot: parhez taomlar tayyorlash                                                                                                  | 2         |                                      |  |  |                                      |  |  |      |

|       |                                                                                                                                                                                                 |           |  |  |  |  |  |  |  |
|-------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|--|--|--|--|--|--|--|
| 17-18 | Dasturxon, salfetka-sochiqlarning turlari, ulardan foy-dalanish, saqlash va yuvish. Amaliy mashg'ulot: Tushlik uchun dasturxon tuzash                                                           | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi</b>                                                                                                                                                    | <b>48</b> |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Umumiy tushunchalar</b>                                                                                                                                                                      | <b>4</b>  |  |  |  |  |  |  |  |
| 19-20 | Xavfsizlik texnikasi qoidolari va sanitariya-gigiyena talablari. Jun va ipak tolali gazlamalar, ulaming olinishi. Jun va ipak tolalarning xossalari                                             | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 21-22 | Amaliy mashg'ulot: jun va ipak gazlamalarning xossalarini aniqlash.                                                                                                                             | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Asbob-uskunalar, mosiamalar va ulardan foydalanish</b>                                                                                                                                       | <b>2</b>  |  |  |  |  |  |  |  |
| 23-24 | Furnitura haqida umumiy ma'lumot. Ilgaklar, halqalartikish, tugmachalar va pistonlar qadash. Taqilma turlari. Amaliy mashg'ulot: «Molniya» taqilmasini tikish. <b>3-nazorat ishi</b>            | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish</b>                                                                                                                                      | <b>4</b>  |  |  |  |  |  |  |  |
| 25-26 | Oyoq yuritmal tikuv mashinasining tuzilishi. Ishlash prinsipi. Amaliy mashg'ulot: Oyoq yuritmal tikuv mashinasini ishlashga tayyorlash                                                          | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 27-28 | Tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanish. Tikuv mashinasidagi kichik nosozliklarni tuzatish. Amaliy mashg'ulot: Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi</b>                                                                                                                                               | <b>38</b> |  |  |  |  |  |  |  |
| 29-30 | Beldan kiyiladigan kiyim turlari. Yubkalar haqida ma'lumot. O'lchov olish. <b>4-nazorat ishi</b>                                                                                                | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 31-32 | Yubka chizmasini chizish                                                                                                                                                                        | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 33-34 | Yubka eskizlarini chizish va modellashtirish                                                                                                                                                    | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 35-36 | Yubka chizmasini tekshirish. Andoza va gazlamani tayyorlash                                                                                                                                     | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 37-38 | Gazlama ustiga andozani joylashtirish. Yubkani bichish va tikish                                                                                                                                | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 39-40 | Birinchi kiydirib ko'rish. Kiydirib ko'rishdan so'ng kamchiliklarni tuzatish                                                                                                                    | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 41-42 | «Molniya» taqilmasini tikish. <b>5-nazorat ishi</b>                                                                                                                                             | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 43-44 | Yubkaning bel va etak qismlariga ishlov berish                                                                                                                                                  | 2         |  |  |  |  |  |  |  |
| 45-46 | Yubkani bezash va oxirgi ishlov berish                                                                                                                                                          | 2         |  |  |  |  |  |  |  |

|       |                                                                                                                                                                                                                                |   |  |  |  |  |  |  |  |
|-------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|--|--|--|--|--|--|--|
| 47-48 | Zardo'zlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi. Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar (gazlamalar turlari, karton, zar iplar). Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Zar ipni o'rash. <b>6-nazorat ishi</b>          | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 49-50 | Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari. Kartonga naqsh (gul) rushirish va qirqish. Ish o'rnini tashkil qilish                                                                                                               | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 51-52 | Bo'zni korcho'pda taranglab tortish. Zamindo'zi va guldo'zi usulida tikishni o'rgatish                                                                                                                                         | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 53-54 | Choynak yopqichining gulnaqshini zar ipdan tikish                                                                                                                                                                              | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 55-56 | Tikilgan mahsulotni korcho'pdan tushirib, tayyorlash texnologiyasini o'rganish (astar tikish). Buyumga oxirgi ishlov berish                                                                                                    | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 57-58 | Nozmunchoq (biser) va undan foydalanish haqida ma'lumot. Nozmunchoq to'qish uchun zaruriy xom-ashyo va moslamalar. Nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar to'qish                                                     | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 59-60 | Milliy bosh kiyimlardan do'ppi tikish texnologiyasi. Do'ppini bichish. Bo'laklarga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikib, tugatish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash. <b>7-nazorat ishi</b> | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 61-62 | Qiz bolalar sumkchasini tikish texnologiyasi bilan tanishtirish. Andoza tayyorlash, zaruriy gazlama, iplar tanlash, sumkachani bichish                                                                                         | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 63-64 | Sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikish.                                                                                                                                            | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 65-66 | Qiz bolalar sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston bilan tikish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash. <b>8-nazorat ishi</b>                                                               | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
|       | <b>Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi</b>                                                                                                                                                                                     | 2 |  |  |  |  |  |  |  |
| 67-68 | Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalari. Yamoq solish texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot: yamoq solish                                                                                                       | 2 |  |  |  |  |  |  |  |

## 6-sinf. № 1-2 dars. Umumiy tushunchalar

**Mavzu :** Pazandachilik xonasini jixozlanishiga qo`yiladigan talablar. Sanitariya gigiyena talablari va x.t.qoidalari un va don maxsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati.

**Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarda pazandachilikda x.t.q va sanitariya gigiyena talablarini mukammal tushuntirish.

Un va don maxsulotlari haqida tushuncha berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarga go`zallik, nafosat bilimini berish. Pazandachilik jixozlariga qo`yiladigan talablariga amal qilishni o`rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarga pazandachilikka bo`lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash bilan birga, ularga milliy pazandachilik tarixini singdirib borish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlab borish, pazandachilik kasbiga mehr uyg`otish.

**Dars jihozi:** Pazandachilikka oid rasmlar ko`rgazmalar.

**Darsning turi:** Aralash omixta dars

**Darsning uslubi:** Suhbat , bahs

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                        | Vahti     | Darsning mazmuni                                                 |
|---|-------------------------------------------------------------|-----------|------------------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                              | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish            |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                         | 10 daqiqa | Dolzard muammolar haqida suhbat                                  |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                              | 10 daqiqa | Savol-javob                                                      |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                          | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                           |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                  | 5 daqiqa  | Savol-javob                                                      |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                             | 5 daqiqa  | Video rolik                                                      |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni b aholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                                   |
| 8 | Amaliy mashg`ulot                                           | 45 daqiqa | Un va don mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar ro`yhatini tuzish |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Pazandachilik xonasini jixozlanishiga qo'yiladigan talablar.

Sanitariya gigiyena talablari va x.t.qoidalari un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati.

Pazandachilik yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar xonasiga yorug'lik yaxshi tushadigan, hid va bug'lardan tozalash uchun maxsus shamollatgich moslamalar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Uning devorlari kafel bilan qoplangan bo'lib, qo'l va oshxona idish-tovoqlarini yuvish uchun alohida chanog'i bo'lishi zarur. Oshxona jihozlarini saqlash uchun mebellar mahsulotlarga ishlov berish va tayyorlangan taomlarni bezash uchun stollar bo'lishi hamda mahsulotlarga issiqlik ishlovi berish uchun elektr plita va duxovkalar yong'inni oldini olish va elektr xavfsizligi qoidalariga muvofiq o'rnatilishi lozim

### **Pazandachilik o'quv xonasida xavfsizlik texnika qoidalari**

1.Ovqat tayyorlashni boshlashdan oldin ishlatiladigan elektr asboblari va jihozlarning sozligini tekshirish lozim.

2.Elektr jihozlarini tok manbayiga ulashda qo'l quruq bo'lishi kerak.

3.Go'sht qiymalagichda ishlashda unga mahsulotni maxsus moslama bilan surish lozim.

4.Pichoqni boshqa kishiga sop tomoni bilan uzatish kerak.

5.Kastrulka yoki qozonda suyuqlik qaynatishda suyuqlikni to'ldirib solish mumkin emas.

6.Suyuqlik qaynab turgan idishning qopqog'ini o'zidan teskari tomonga qaratib ochish kerak.

7.Tovadagi qizigan yog'ga mahsulotni sekin-asta, tovaning bir chetidan solish kerak.

8.Qaynayotgan suyuqlikka turli mahsulotlarni sachratmasdan ehtiyotkorlik bilan solish kerak.

9.Issiq qozon,tova, idish-tovoqlarni maxsus qo'lqop yoki moslama bilan ushlash kerak.

10.Oshxonada tagi qiyshiq, bandlari singan, cheti uchgan, siri ko'chgan idish-tovoqlarni ishlatmaslik kerak.

### **Pazandachilik xonasida sanitariya-gigiyena qoidalari:**

1. Ovqat va pazandachilik mahsulotlarini pishirishda maxsus kiyimlar - ochiq rangli fartuk va qalpoq kiyish yoki oq ro'mol o'rab olish lozim.

2. Ovqatni tayyorlashga kirishishdan oldin qo'llarni sovun bilan yuvish, tirnoqlar olingan bo'lishi kerak.

3.Ovqat tayyorlashda imkon qadar yangi, sifatli mahsulotlardan foydalanish lozim.

4.Go'shtga, baliqqa birlamchi ishlov berishda maxsus tamg'alangan - «XG», «XB» taxtakach va pichoqlardan foydalanish kerak.

5.Ish o'mini tez-tez tozalash va har doim ozoda, pokiza saqlashga harakat qilish lozim.

6.Xona jihozlarining saranjomligi va ozodaligini ta'minlash lozim.

7.Toza idishlarni maxsus gigiyenik javonlarda saqlash kerak.

8.Chiqitlarni maxsus qopqoqli idishga solib o'z vaqtida chiqarib tashlash kerak.



### **Taom har joyda lazizat bir joyda.**

Inson hayot ekan unga albatta oziq-ovqat kerak. Buning uchun albatta pazandachilik xonasi, jixozi o`z o`rnida tartibli qilib joylashtirish kerak. Elektr bilan ishlaydigan oshxona jixozlari, muzlatgich, choynak elektr pechlar va gaz asboblari qulay qilib joylanishi va x.t qoidalariga talab berishi lozim. Idish tovoqlar uchun jovon, qo`l yuvish uchun xam moslamalar ham tartib bilan joylashtirilgan bo`lishi lozim. Bu oshxona ishlarini bajarishda qulaylik yaratadi.

### **Un va don maxsulotlari.**

Un va don maxsulotlari pazandachilikning asosiy xom ashyosi. Demak shunday ekan pazandachilik bilan dehqonchilik chambarchas bog`liq bo`lgan sohalardir. Ulug` tabiatshunos olim K.A.Temiryazov “Bo`rsildoqqina pishgan bug`doy nonni sindirib yeyilayotganda mana shu maxsulot insoniyatning donoligi buyuk kashfiyotlaridan biri ekanlagini hammaning ham esiga kelavermaydi deb yozgan edi.” Un don maxsulotlariga bug`doy, sholi, suli, tariq, makkajo`xori, loviya, mosh kabi boshoqli hamda dukkakli ekinlar kiradi. Bu o`simliklar minerallar va vitaminlarga boy bo`lganligi uchun iste`mol qilinadi. Ulardan turli xil taomlar, salatlar tayyorlanadi.

Yovvoyi boshoqli ekinlarni tarixi taqriban 10.000-15.000 yil muqaddam boshlangan. Ular qayta qayta eqilib sun`iy ravishda yangi yangi navlar yaratilgan va kashf qilingan.

### **Darsni mustahkamlash**

1. Un va don maxsulotlari haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Un va don maxsulotlaridan qanday taomlar tayyorlanadi?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa :** Un va don maxsulotlariga bog`iliq materaillar to`plash va o`rganish.

## **6-sinf. № 3-4 dars. Asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanish**

**Mavzu :** Pazandachilik xonasida ishlash uchun sanitariya va gigiyena talablari. Oshxona asboblarida metal, sopolchini plastmassa shisha idishlardan to'g'ri foydalanish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga oshxonada ishlatiladigan asbob uskunalar haqida tushuncha berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchi qizlarni mustaqil hayotga tayyorlab borish bilan birga orastalik, estetik did bilan ishlashga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni qiziqishiga ko'ra pazandachilik sirlarini o'rgatib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, orastalikka o'zbekona pazandachilikni ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg'otish.

**Dars jihozi:** Ko'rgazmali rasmlar.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg'ulot.

### **Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vaqt      | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Oshxona jixozlarini yuvishni o'rganish                |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

## **Yangi dars bayoni: Pazandachilik xonasida ishlash uchun sanitariya va gigiyena talablari.**

Oshxona ishlarini bajarishda sanitariya gigiyena talablari birinchi o`rinda turadi. Tozalik bo`lgan joyda har doim unum bo`ladi.

Jamoa ovqatlanish joylarida, oziq-ovqat korxonalarida ishlovchi xodimlar shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishlari juda ham zarur. Ularni shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmasligi turli yuqumli kasalliklarni (qorin tifi, dizenteriya, tuberkulyoz, teri-tanosil), shuningdek, turli xil ovqatdan zaharlanishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun jamoa ovqatlanish korxonalari xodimlari ishga qabul qilinishidan oldin tibbiy ko`rikdan o`tishlari va sanitar-gigiyenik bilimlarni o`qib o`rganishi va imtihon topshirishi kerak. Jamoa ovqatlanish korxonalari xodimlari quyidagi shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishlari shart:

1. Ishga toza kiyimda va yuvingan holda kelishi.
2. Timoqlar toza olingan bo`lishi va qo`lda taqinchoqlar bo`lmasligi.
3. Ishga tushish oldidan qo`lni sovunlab toza yuvish, top-toza maxsus oq xalatni, fartukni kiyishi, sochlarni bosh kiyim ostiga olishi.
4. Shamollash alomatlari yoki yiringli yaralari, kuygan, kesilgan joylari bor bo`lsa ishga qo`yilmasligi.
5. Hojatxonaga kirishdan oldin maxsus kiyimlar yechiladi va chiqqandan so`ng qo`lni sovunda tozalab yuvish.

### **OSHXONA JIHOZLARI**

Taomlar maxsus xona—oshxonada tayyorlanadi. Oshxona tartibli jihozlanishi, unda sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi shart, ya`ni:


1. Xona jihozlarining saranjomligi va ozodaligini ta`minlash;
2. Toza idishlarni shkafda yoki yopiq tokchada saqlash;
3. Chiqindilarni yig`ishtirib maxsus usti yopiq idishga solish va o`z vaqtida chiqarib tashlash kerak.

Idishlarni issiq suvga biroz iste`mol sodasi, gorchitsa va boshqa yuvish vositalari solib» tegishli moslamalar yordamida yuviladi. Bu vositalar idishlarni yaxshi tozalaydi. Og`zi tor idishlarning ichi maxsus cho`tkada yuviladi. Ruxlangan choynaklarning ichini esa iste`mol sodasi bilan qaynatib, so`ng yuviladi.

**IDISH-TOVOQ** metall, sopol, chinini, shisha, plastmassadan tayyorlanadi. Metall idishlarning alyuminiy, po`lat, jez, cho`yan, mis va boshqa metall va qotishmalardan ishlanadigan turlari bor.

Alyuminiy idishlar shtampovka qilib, quyib tayyorlanadi. Shtampovka qilib tayyorlanadigan alyuminiy idishlar ishlatilishiga qarab har xil og`irlikda bo`ladi: yengillari tagining qalinligi 1,5 mm, o`rtachalari — 2 mm, og`irlari — 2,5 mm bo`ladi. Qalin qilib quyilgan alyuminiy idishlar (tova, kastryul, qozon va shu kabilar), asosan yog`dog`lab, masalliq qovurishga, quyuq taomlar pishirishga mo`ljallangan. Alyuminiy idishlar kumushsimon xira sirlab, silliklab, jilolab, xromlab, bo`yamay yoki har xil ranglarga bo`yab sirlab ishlanadi. Alyuminiy idish-tovoklar issiqda chidamli (658°S da eriydi) bo`ladi, haroratning tez o`zgarishi ta`sir ko`rsatmaydi, bunday idishlarda taomning rangi, hidi, ta`mi

buzilmaydi, shur, organik kislotalarga boy masallqlarni qovurib yoki qaynatib pishiraverish mumkin. «Pekin ovqatni 2 sutkadan ortiq saqlab bo`lmaydi. Tuzlangan karam, shur bodring kabilarni alyuminiy idishlarda saklashi mumkin emas, tuz, kislota, ishkordan tez ayniydi. Yangi alyuminiy idishni hayvon yoki o`simlik moyi surtib kaynatib tashlab, keyin foydalanish kerak.



**1- rasm. Oshxona jihozlari**

Po`lat idishlar emallab, ruxlab, qalay bilan oqritib ishlanadi. Emallangan po`lat idishlarga organik kislotalar, tuz, sovun ta`sir etmaydi, tez yuviladi, ovqat tayyorlashdan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq vaqt saqlashga ham yaraydi. Lekin qo`yuq taomlarni, ayniqsa bo`tqa, palov kabi taomlarni bunday idishlarda tayyorlamaslik keraq harorat tez o`zgarishi oqibatida emali tez ko`chib ketadi. Alyuminiy idishlarni tozalashda qo`llaniladigan preparatlar emallangan pulat idishlarni tozalashda ham foydalaniladi.

Ruxlangan po`lat idishlarda suv, kerosin kabilarni saklash mumkin, lekin taom tayyorlashga yaramaydi, ularda suv qaynatish ham mumkin emas (kir yuvish uchungina suv qaynatsa bo`ladi), oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash ham mumkin emas (ruh qatlami tuz, kislotalardan tez buziladi). Ruhlangan idishlarni «Chistol» va boshqa tozalash vositalari bilan tozalash kerak yoki maydalangan bo`rni movut bilan ishqab tozalasa ham bo`ladi. Qalaylab oqartirilgan po`lat idishlarda ham iste`mol qilish uchun suv qaynatmaslik kerak qalay qatlami yumshoq bo`lgani uchun bunday idishlarni qattiq

poroshoklar bilan ham tozalash mumkin emas. Zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan idishlar suyuq taomlar tayyorlashga mos, ularda taomlarni uzoq saqlash ham mumkin.

Jez (mis va ruh qotishmasi) idishlar suv qaynatish va shirinliklar (murabbo va shuning kabilar) tayyorlashga mos. Bunday idishlar alyuminiy va emallangan idishlarga nisbatan chidamli bo'ladi. Odatda ro'zg'orda kam ishlatiladigan jez idishlar vaqt o'tishi bilan qorayadi, zanglay boshlaydi, chunki organik kislotalar, moy, sut va boshqa ko'pgina masalliqalar unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday idishlar faqat suv bilan qaynatiladigan taomlar tayyorlashda ishlatilishi kerak. Shirinliklarni saqlashga ham yaramaydi. Jez idishlar «Asidol» suyuq preparati va shu idishlarni yuvishga mo'ljallangan preparatlar bilan tozalanadi.

Cho'yan idishlar asosan qovurish, dimlash uchun ishlatiladi. Cho'yan idishlar qora cho'yan tarzida, shuningdek bir tomoni yoki ikkala tomoni shisha-emal bilan dqplab ishlanadi. Qora cho'yan idishlar mo'rt bo'ladi, sirti notekis bo'lganidan yaxshi artilmasa, quritilmasa zanglaydi. Chuyandagi temir tuzi vitaminlarni nobud qiladi. Emallangan cho'yan idishlar organik kislota, tuz, ishqorga chidamli bo'ladi. Cho'yan qozon seryog taomlar, ayniqsa qo'yuq taomlar tayyorlashga yaxshi. Uzoq vaqtlar yog' qizdirilaverib, bunday qozonlar har qanday suyuq taomlar tayyorlashga ham moslashib qoladi. Cho'yan qozonda mosh, loviyalı taomlarni uzoq saqlab bo'lmaydi. Cho'yan idishlarning emali sinib ko'chganda ularni taom tayyorlashda boshqa ishlatmaslik kerak. Emallangan cho'yan idishlar ham emallangan po'lat idishlarni tozalashda ishlatiladigan preparatlar bilan tozalanadi.

Melxior (mis bilan nikel qotishmasi) va neyzilber (mis, nikel, rux qotishmasi) idishlar asosan dasturxon ustiga qo'yiladi. Bu qotishmalar mustaxkam bo'lib, tashqi tomonidan kumush, nikel bilan, ichkari tomondan qalaylab, nikellab oqartiriladi. Tozalash uchun o'ziga mos pastalar ishlatiladi. Tez-tez ishlatilib turganda bunday idishlarni har 7—10 kunda sovunli suvda 1l suvga 1 choyqoshiq novshadil spirt qo'shib yuviladi. Namdan qoraygan joylari iliq sirka bilan yuviladi, keyin toza suvda chayqaladi. Tozalangan bo'r bilan sovun (baravariga) qo'shib, yarqiratish mumkin (sovun suvda eritilib, bo'r qo'shib xamir holiga kelguncha qoriladi).

Chinni idishlar ikki turga bo'linadi: nafis chinni (farfor) va dag'al chinni (fayans). Nafis chinni limon va sirka kislotalariga chidamli, yupqa sirlangan bo'ladi, qattiq (qirilmaydi), jaranglaydi, asosan oq ba'zan rangli sirlanadi. Dag'al chinni qalin, sirlangan, nafis chinniga nisbatan anchagina chidamsiz (tez sinuvchan), nisbatan yengil, yirik idishlarga (masalan, katta kosa, guldon, sut va yog' solinadigan idishlar, qanddon va shuning kabilar)ga qulay. Chinni idishlar «Pemoksol», «Chistol», «Blesk» poroshoklari, shu idishga mo'ljallangan pastalar bilan tozalanadi. Yuvib turish uchun esa «Posudomoy», shu idishga suyuq preparatlari ishlatiladi.

Sopol idihh-tovoqlar ichi sirlangan bo'ladi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda va ularni iste'mol qilishda ko'p ishlatiladi. Piyola, kosa, tovoq, ko'za, xurma, xum va shuning kabi idishlar O'rta Osiyoda juda keng tarsalgan, ular qaynoq suvda yuvilib (ba'zan sovun ishlatib) tozalanaveradi.

Shisha idishlar ikki usulda: cho'yan yoki po'lat qoliplar yordamida presslab va puflab tayyorlanadi. Puflab tayyorlangan shisha idishlar yupqa, nafis bo'ladi, tiniq ba'zan rangli ishlanadi. Presslangan shisha idishlar qalin, rangsiz, rangli, kamroq miqdorda billurdan ishlanadi. Suv, choy, vino va turli ichimliklar ichiladigan stakan, qadaxlar, salat, qand solinadigan turli idishlar, vazalar shishadan ishlanadi. Olovga

chidamli maxsus shishadan ishlanadigan idishlar ovqat pishirishda foydalaniladi. Lekin foydalanayotganda ehtiyot bo`lish kerak: qizigan payitda sovuq suvga tegmasdagi, sovuq nam joyga qo`yilmasligi, idish sovub turganda esa to`satdan qaynoq suv solinmasligi lozim. Olov ustiga

metall setka qo`yib, ustidan shisha idish qo`yilgani ma`qul. Shisha idishlarni yuvishda qum ishlatmaslik kerak metall cho`tkalardan ham foydalanib bo`lmaydi, ularni iliq suvda yuvish kerak. Haroratni keskin o`zgartmay asta-sekin isitib yoki sovitib yuvish lozim (undan foydalanayotganda ham shu qoidaga rioya qilmoq kerak). Og`zi tor idishlar ichini maydalangan qogoz, paxta kabilarni tashlab, suv solib chayqash, tozalashda kerakli yuvish vositalaridan foydalanish kerak. Idish yuviladigan suyuq preparatlar ham bor.

Xrustal idishlarni qaynoq suvda yuvib bo`lmaydi — xiralashadi. Iliq hatto sovuq suvda yuvgan yaxshi.

Plastmassa idish-tovoqlar chinni va sopol idishlarga nisbatan ancha chidamli bo`lib, oson yuviladi. Plastmassa idishlardan sovuk taomlar, oziq-ovqat mahsulotlarini qisqa muddat saqlashda foydalangan ma`qul. Bunday idishlarni tozalash uchun «Kometa» pastasi, «Jemchug». «Vilva», «Sosenka» kabi suyuq preparatlar mavjud. Nam latta yoki cho`tkaga poroshok yoki pasta tashlab, suvga botirib olingan idish artiladi, keyin toza suv bilan yuviladi. Suyuq. preparatlar bilan latta yoki gubka xo`llanib, idish artiladi, ishlanadi, 15—20 minutdan keyin suv bilan yuviladi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa** O`tilgan mavzuni takrorlab, o`rganib kelish.

## **6-sinf. № 5-6 dars. Pazandachilikda ishlatiladigan texnologik jihozlar va ulardan foydalanish**

**Mavzu :** Sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'qinli elektr-pechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi. **1-nazorat ishi**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'qinli elektr-pechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi haqida tushuncha berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchi qizlarni mustaqil hayotga tayyorlab borish bilan birga orastalik, estetik did bilan ishlashga o`rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni qiziqishiga ko`ra pazanda-chilik sirlarini o`rgatib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, orastalikka o`zbekona pazandachilikni ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg`otish.

**Dars jihozi:** Ko`rgazmali rasmlar.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg`ulot.

### **Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Nazorat ishi 1                                             | 45 daqiqa | O`tilgan mavzu yuzasidan nazorat ishi                 |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'lqinli elektr-pechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi.

Muzlatkich sovitkichlar (ro'zg'orda ishlatiladigani). Kameronidagi zarur temperatura + 6°C dan —18°C gacha bo'lgan turli hajmdagi muzlatkichlar ishlab chiqariladi. Muzlatkichlarning kompression (bir yoki ikki kamerali), absorbsion, termoelektrik xillari bor. Tashqi ko'rinishiga ko'ra polga va stolga o'rnatiladigan, osma, ko'chma (xaltatermos), kombinasiyalashgan (shkaf ko'rinishida, shuningdek oshxona mebeliga o'rnatilgan) bo'ladi.

K o m p r e s s i o n muzlatkichlarda kamera germetik sovitish agregati bilan sovitiladi. Unda sovitish agenti (freon) elektr ateli yordamida harakatlanuvchi kompressor bilan sirkulyasiyaladi. Freon zararsiz, alanganmaydi va hidi yo'q. Sovitish agregati ixcham bo'lib, kam shovkin bilan ishlaydi, ishlatish vaqtida ishqalanuvchi detallarni almashtirish va moylash talab etilmaydi. Muzlatish kamerasida past temperatura sovitish agregatining muntazam ravishda qisqa vaqt ishlashi natijasida hosil bo'ladi bu esa elektr energiyani tejashga imkon beradi. Absorbsion

xolodilniklarda sovitish agenti sifatida elektr qizdirgichdan yoki gaz tarelkasidan ajralib chiqadigan issiqlik hisobiga sirkulyasiyalanuvchi ammiak ishlatiladi. Bunda harakatlanuvchi mexanizmlarning bo'lmasligi xolodilniklarning shovkinsiz ishlashini ta'minlaydi. Muzlatish kamerasining hajmi kichik bo'lganligi uchun unda mahsulotlarni muzlagan xolda saqlashga imkoniyat yo'q.

**Muzlatkichdan to'g'ri foydalanish.** Elektr energiya sarfini tejash uchun muzlatkichlarni plitalar, isitish radiatorlaridan uzoqroq na imkoni boricha salqin joyga o'rnatish kerak. Sovitish kamerasiga zarur temperatura rejimi berish uchun termorostlagich dastasini shkalaning kerakli bo'linmasiga o'rnatiladi. So-vukligicha iste'mol qilinadigan mahsulotlar 6—8°C dan, ichimliklar esa 10—12°C dan past bo'lmasligi kerak. Mahsulotlar tokcha (polka)larga uyib tashlatish, kamerada havoning kerakli sirkulyasiyasini hisobga olgan xolda qo'yiladi, muzlatish kamerasiga yaqin joylardagi mahsulotlar ko'proq soviydi. Muzlatkich eshigini zich yopish va juda qisqa vaqtda ochish juda muhim.

**Mahsulotlarni saqlash.** Yangi go'sht, nimalanmagan baliq va parranda go'shti, dudlangan mahsulotlarni —2°C dan 0°C gacha temperaturada saqlash ma'qul. Buning uchun ularni sovitish kamerasining yuqori tokchalariga qo'yish lozim. Go'sht va baliqlar nimalangach, ularni doim manfiy temperatura bo'ladigan muzlatish kamerasining ostiga qo'yish mumkin. Mahsulotlar qurib va suvsizlanib qolmasligi uchun ularni selofan, zar qogozga o'rab yoki polietilenli paketga solib qo'yish tavsiya etiladi. Dudlangan baliqlarni o'rab qo'yish lozim, chunki ochiq xolda xidi boshqa mahsulotlarga o'tib qoladi.

Pishloq, sariyor va boshqa yog'lar 4°C temperaturada, eritilgan sariyog' va oq yog' 1°C gacha bo'lgan temperaturada yaxshi saqlanadi. Muzlatkichda bo'larga mo'ljallangan ikki yuqori polkasi bor. Pishloqning o'tkir xidi boshqa mahsulotlarga o'tib qolmasligi uchun uni selofan, zar qog'oz, polietilenli paket yoki maxsus pishloqdonda saqlash tavsiya etiladi.

Shuningdek moy va yog'larni ham o'rab qo'yish kerak chunki ular boshqa hidlarni o'ziga tez oladi.



Konditer mahsulotlari — krem, kremli tortlar, tez buziluvchi piroglarni 1°C dan yuqori bo'lmagan temperaturada, boshqa xamirli pishiriqlarni 4° dan 6°C gacha temperaturada saqlash kerak. Duxovkada pishirilgan mahsulotlarni biror idishda, ustini xavo almashib turishligi uchun doka yoki yupqa mato bilan yopib saqlagan ma'qul.

Tuxum, qaymoq, sut, kefir, qatiq, mayonezni 3—6°C, smetana va tvorogni 0—4°C temperaturada saqlash tavsiya etiladi. Agar muzlatgichda tuxum qo'yadigan maxsus chuqurchalar bo'lmasa, uni biror idishga solib, o'rtadagi tokchaga quyish kerak. Tuxumni muzlatish kamerasiga yaqin joyga qo'yish mumkin emas, aks xolda u muzlab qoladi.

Muzlatgichda sut, qaymoqni 1—2 kun, suzmani 5—10 kun, tuxumni 2—3 hafta, sariyog' va margarinni uch haftagacha saqlash mumkin.

Sabzavotlarni muzlatgichning tubidagi maxsus idishlarga solib, 3°C dan 7°C gacha temperaturada saqlagan ma'qul. Mevalarini yuvmay, nam o'tkazmaydigan idishga joylab uzog'i bilan 8 kun saqlash mumkin. Tuzlangan maxsulot va marinadlar 6°C temperaturada pastki tokchada saqlanadi.

Vino, pivo, sharbat va mineral suvlar 4—8°C da saqlanadi. Mineral suvlarni juda ham sovitib yuborish yaramaydi, chunki u shifobaxshlik xususiyatini yo'qotadi.

Ochilmagan konservalarni muzlatgichda saqlash shart emas, chunki ular normal uy temperaturasida buzilmaydi (etiketkasiga salyut joyda saqlansin).

**Muzlatgichni tozalash.** Taxminan har 2—3 haftada sovitish kamerasi va emal bilan qoplangan buyumlari osh sodasi (bir l suvga 1 oshqoshiq eritmasi) bilan yuviladi. Ichki shkaf, bachoq panel, eshiklarning sirlari sovunli suv bilan yuviladi. Shkafning tashqi sirti barcha anjomlari, eshik zichlagichi iliq suv bilan yuviladi.

Barcha sirtlar quriguncha yumshoq sochiq yoki flanel bilan artiladi. Muzlatg ich hidlanib qolganda uning sovitish kamerasi va barcha anjomlari yuviladi, quruqlayin artiladi va shamollatiladi. Hidni ketkazish uchun muzlatgichga maxsus hid yutgichlar qo'yish tavsiya etiladi.

Muzlatgich devorlarida hosil bo'lgan muzni vaqti-vaqti bilan eritib turish lozim, aks xolda u maxsulotlarni yaxshi sovitmaydi, Muz qatlami tez ko'paymasligi uchun muzlatgichga issiq taom qo'ymaslik suyuqliklarni usti ochiq idishda saqla-maslik shuningdek shkaf eshigini zich yopmay qoldirmaslik lozim. Muzlatgich uzoq muddat ishlatilmaganda shkaf eshigini ochiq qoldirish tavsiya etiladi. Muzlatgich joydan-joyga tik xolda tasmalar yordamida siljtiladi.

Termos, mikroto'lqinli elektr-pechlarning tuzilishi va foydalanish texnologiyasi ham huddi yuqorida aytib o'tilgan muzlatgich kabi foydalaniladi. Har bir elektr buyumini ishlatganda avvalo xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilishni unutmaslik kerak.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

### **6-sinf. № 7-8 dars**

**Mavzu :** Qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan: ko'pirtirgich (mikser)ning turlari, tuzilishi, ahamiyati, undan foydalanish qoidalari

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan: ko'pirtirgich (mikser)ning turlari, tuzilishi, ahamiyati, undan foydalanish qoidalari haqida tushuncha berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarni elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish bilan birga orastalik, estetik did bilan ishlashga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni qiziqishiga ko'ra pazanda-chilik sirlarini o'rgatib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG'sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg'otish.

**Dars jihozi:** Ko'rgazmali rasmlar, mikser.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg'ulot, savol-javob, suhbat.

#### **Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vaqt      | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Ko'pirtirgich bilan ishlashni o'rganish               |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan: ko'pirtirgich (mikser)ning turlari, tuzilishi, ahamiyati, undan foydalanish qoidalari

O'zbek milliy pazandachiligida qandolatchilik ham muhim o'rin tutadi. O'zbek qandolatchiligida tayyorlanadigan xolva, pashmak, novvot kabishirinliklar hali hech bir xalqlarda bo'lmagan.

Har bir ishni bajarishda albatta asbob – uskunalarining o'z o'rnini bor. Pazandalikda ishlatiladigan mikserlar ham shular jumlasidandir.

Mikserlar turli xil bo'lib, ular qandolatchilik, pazandachilik ishlarida asosiy asbob hisoblanadi.


Avvalari mikser o'rnida behi novdalaridan foydalanilgan, hozirda ham nisholda tayyorlashda shu usuldan foydalaniladi.

Mikserlar turli xil ko'rinishda va turli xil hajmda bo'ladi.

MIKCEP — sovuq ichimliklarni tez aralashtirish, tuxumni korishtirish, kokteyl, krem, mayonez, xamir, tayyorlashga xizmat qiladigan elektr asbob. «Meteor» va «Armaz» mikserlari kofe, yopgoq shokoladlarni maydalashga moslashtirilgan. Mikserlar aralashtiradigan idishlar ham ishlab chiqariladi.

Mikserda meva va sabzavotlarni maydalashdan avval ularni meva bandi, danagi va o'zagidan tozalash kerak. Kokteyl tayyorlash uchun hammasi bo'lib 20—30 sekund, tuxumni korishtirishga 20—25 sekund ketadi.

Mikser qizib ketmasligi uchun 5—10 minut ishlagach, uni elektr tarmogidan uzib qo'yish lozim. Ishlatib bo'lgan mikserning barcha qismlarini yaxshilab yuvish zarur.



**1-rasm. Mikser turlari**

### **Darsni mustahkamlash.**

1. Qandolatchilik haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbek qandolatchiligida tayyorlanadigan shirinliklarni ayting.
3. Mikserlar nima vazifani bajaradi?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

## 6-sinf. № 9-10 dars . Taomlar tayyorlash texnologiyasi

**Mavzu :** Sut va sut mahsulot turlari. Achitilgan sut mahsulotlari sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish sharoiti va muddati. Amaliy mashg'ulot: tvorojnik, pudring tayyorlash va dasturxonga tortish tartib qoidalari

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga sut va sut mahsulot turlari, ularning ahamiyati, undan foydalanish qoidalari haqida tushuncha berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarni orastalik, estetik did bilan ishlashga o`rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni qiziqishiga ko`ra pazanda-chilik sirlarini rivojlantirib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG`sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg`otish.

**Dars jihozi:** Ko`rgazmali rasmlar, sut va sut mahsulotlaridan namunalar.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg`ulot, savol-javob, suhbat.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Tvarojnik tayyorkashni o`rganish                      |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Sut va sut mahsulot turlari. Achitilgan sut mahsulotlari sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish sharoiti va muddati. Amaliy mashg'ulot: tvorojnik, pudring tayyorlash va dasturxonga tortish tartib qoidalari

Sut juda foydali maxsulotdir. Sut tarkibidagi oziq moddalar organizmga nihoyatda yaxshi hazm bo'ladi. Sut barcha yoshdagi kishilar uchun zarur, ayniqsa bolalar va keksalar uchun uning ahamiyati nihoyatda muhim. Sutning kasallar uchun parzsezli taomlar tayyorlashdagi ahamiyati katta. Sutning tarkibida suv, sut moyi, oqsil, sut qandi, mineral moddalar, vitaminlar, fermentlar va gormonlar bo'ladi. Sutning kimyoviy tarkibi va oziqlik qimmati chorva mollarining turi va zoti, ularning boqilish sharoiti va parvarishi, hamda yil fasliga qarab o'zgarib turadi.

Sut oqsili organizmda deyarli to'liq (98% gacha) hazm bo'ladi, unda kishi hayot-faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha aminokislotalar bor.

Sut qandi, ya'ni laktoza sutning asosiy uglevodidir. Laktoza ichakda yaxshi parchalanadi. Laktoza boshqa qandlarga qaraganda sekin suriladi va shuning uchun ham u deyarli to'la (98%) hazm bo'ladi.

Ba'zi kishilar yangi (xom) sutni hazm qila olmaydilar. Bunday kishilar sut iste'mol qilganlarida ular da diatez sodir bo'ladi, ichakda kuchli og'riq paydo bo'ladi, ich suradi, tirishish paydo bo'ladi, bu ichak shirasida laktoza fermentining etarli miqdorda bo'lmashligidan kelib chisadi. Bunda sut qandi ichakda parchalanmaydi va u organizmga zaharli ta'sir etadi. Yangi sutni hazm qila olmaydigan kishilarga qatiq mahsulotlari iste'mol qilish tavsiya etiladi (sut qandi qatiq mahsulotlarini tayyorlash jarayonida parchalanib ketadi).

Sutning tarkibida turli xil vitaminlar mavjud. Sutdagi 12 xil vitaminlardan A, D, D<sub>2</sub>, B<sub>2</sub> vitaminlari va karotinning ahamiyati muhim. Sut va sut mahsulotlari xi-sobiga kishi organizmining vitamin A ga va V gruppaga vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini to'la, S va D vitaminlariga bo'lgan ehtiyojini qisman qondirishi mumkin. Eski sutda A vitamini ko'p bo'ladi.

Sutdagi turli mineral tuzlardan kalsiy va fosfor tuzlarining ahamiyati muhim. Bu tuzlar sutda organizmga yaxshi singa oladigan nisbatda bo'ladi. Oziq-ovqat rasionida sutning bo'lishi boshqa mahsulotlardagi kalsiy tuzining hazm bo'lishi-ni kuchaytiradi. Sutning tarkibidagi temir ham oson hazm bo'ladi.

Yangi sog'ilgan sut to'la qimmatli bo'ladi.

Sutdan turli xil maxsulotlar tayyorlanadi. Masalan: qatiq, qaymoq, tvorog, pishloq va boshqalar. Sut va sut mahsulotlari tezda ayniydi. Shuning uchun ularni sovuq va salqin joyda saqlash kerak.

Sut va sut mahsulotlaridan turli xil shrinliklar ham tayyorlash mumkin.

### **Tvorojnik tayyorlash.**

Tvorojnik tayyorlash uchun quyidagi masalliq kerak bo'ladi: 0,5 kg tvorog, 200g shakar, un, choy sodasi, 2 dona tuxum, smetana, sariyog yoki o'simlik moyi.

### **Tvorogli quymoq tayyorlash.**

1 kg quymoq uchun kerakli masalliq me'yori: un 400 g, sut 1 l, tuxum 4 dona, shakar 25 g, tuz 8 g, o'simlik moyi 20 g, tvorog 300g.

### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Sirli kastrulkaga tuxum, shakar, tuz solib aralashtiriladi va yaxshilab ko'pchitiladi, unga sutning yarmini qo'shib, elangan un solib, suyuq xamir qoriladi.
2. Xamir bir tekis aralashgach qolgan sut va o'simlik moyi qo'shib yaxshilab aralashtiriladi.
3. Tovani qizdirib o'simlik moyi surtiladi va tayyorlangan suyuq xamir cho'michda olinib, bir tekis qilib tovaga quyiladi.
4. Tovadagi xamirni o'rtacha olovda avval bir tomoni, keyin ikkinchi tomoni pishiriladi.
5. Pishgan quymoqlar xamiri laganga solib taxlanadi.
6. Quymoq uchun tvorogli qiyma tayyorlanadi. Tvorogni yaxshilab ezib, unga ta'bga ko'ra shakar, smetana aralashtiriladi.
7. Quymoq xamiri yoyilib, o'rtasiga tvorogli qiyma qo'yiladi va konvert shaklida o'raladi.
8. Quymoqlarni dasturxonga tortish oldidan qizigan va yog` surtilgan tovaga o'ralgan quymoqlar qo'yilib, ikki tomoni qizartirib qovurib olinadi va likopchaga solinib, ustiga sariyog` yoki smetana quyilib dasturxonga tortiladi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 11-12 dars.

**Mavzu :** Un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati. Xamir turlari. Oshirma va oshirmasdan tayyorlanadigan xamirlar haqida ma'lumot. **Amaliy mashg'ulot:** Yog'li qatlanib, tayyorlangan xamirdan «somsa» pishirish.

### 2-nazorat ishi

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati haqida tushuncha berish.. Xamir turlarini o`rgatish

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarda qiziqishiga ko`ra pazandachilik sirlarini o`rgatib borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni uy-ro`zg`or ishlariga bo`lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG`sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg`otish.

**Dars jihozi:** Ko`rgazmali rasmlar, un va don mahsulotlaridan namunalar.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg`ulot, savol-javob, suhbat.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Osh hamir tayyorlashni o`rgatish                      |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va ahamiyati. Xamir turlari. Oshirma va oshirmasdan tayyorlanadigan xamirlar haqida ma'lumot.

### **Un va don maxsulotlari.**

Un va don maxsulotlari pazandachilikning asosiy xom ashyosi. Demak shunday ekan pazandachilik bilan dehqonchilik chambarchas bog'liq bo'lgan sohalardir.

Un don maxsulotlariga bug'doy, sholi, sulii, tariq, makkajo'xori, loviya, mosh kabi boshqali hamda dukkakli ekinlar kiradi. Bu o'simliklar minerallar va vitaminlarga boy bo'lganligi uchun iste'mol qilinadi. Ulardan turli xil taomlar, salatlar tayyorlanadi.

Yovvoyi boshqali ekinlarni tarixi taqriban 10.000-15.000 yil muqaddam boshlangan. Ular qayta qayta eqilib sun'iy ravishda yangi yangi navlar yaratilgan va kashf qilingan.

Bug'doy uni asosiy ozuqa masalliqalaridan biri hisoblanadi. U ozuqaviyligi o'simliklar orasida tarkibida kraxmal moddasining ko'pligidadir. Unda kraxmal 68-75% bo'lib, tarkibini asosini tashkil qiladi. Bug'doy uni turli navlarga bo'linadi va ulardan non uchun, xamirli taomlar uchun orttirib va orttirmasdan xamir tayyorlanadi.

Oddiy xamirturushsiz xamir tayyorlashda unda achitqi solinmaydi. Bunday xamirdan somsa, lag'mon, chuchvara, manti, o'rama, qatlama tayyorlanadi.

Xamirturushli xamir tayyorlashda esa unga biroz achitqi solinib xamir 2-3 soat davomida ko'pirtiriladi. Bunday xamirdan patir, non, bulochka, perashka va boshqa narsalar tayyorlanadi.

**Amaliy mashg'ulot:** Yog'li qatlanib, tayyorlangan xamirdan «somsa» pishirish. Somsa tayyorlash uchun kerakli maxsulotlar:

Un, yog', sut yoki suv, go'sht, piyoz va ziravorlar.

Avval kerakli xamirni tayyorlab olinadi. Suvga tabga ko'ra tuz solib unni aralashtirib xamir qoriladi va tindiriladi. Tingan xamir olinib zuvalachalarga ajratiladi. Yupqa qilib yoyilgan xamirga sariyog' (hohishga ko'ra yog' tanlanadi) surtiladi va bir tomondan qatlab o'rab ketiladi. Tayyor bo'lib o'ralgan xamirni pichoq yordamida kichik bo'laklarga bo'linadi. Qirqib olingan xamirni yoyib ichiga qiyma solinadi va somsani xoxlagagan shaklda tugib, duxovka yoki tandirda pishirib olinadi.

Somsaning qiymasiga piyoz va go'shtni maydalab to'g'rab, yaxshilab aralashtiriladi. Unga ta'bga ko'ra ziravorlarni aralashtirib ozgina yog' quyiladi. (agar go'sht yog'li bo'lsa boshqa yog' quyish shart emas)

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.



## 6-sinf. № 13-14 dars.

**Mavzu :** O'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari.

**Amaliy mashg'ulot:** Milliy taomlardan «Mastava» tayyorlash

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga o'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari haqida tushuncha berish. Milliy taomlardan «Mastava» tayyorlashni o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarda qiziqishiga ko'ra pazandachilik sirlarini o'rgatib borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni uy-ro'zg'or ishlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG'sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg'otish.

**Dars jihozi:** Ko'rgazmali rasmlar, mastava ovqati uchun kerakli masalliqalar..

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg'ulot, savol-javob, suhbat.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Mastava uhun maxsulotlarni tayyorlashni o'rganish     |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** O'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari.


Har bir xalqning o'z milliy pazandaligi mavjud bo'lib, ular boshqasidan turli taomlari bilangina emas, balki biror ovqatni o'zgacha mazali qilib tayyorlashi bilan ham farq qiladi.

O'zbek milliy taomlari juda xilma-xildir. Ular ichida suyuq taomlarni ham alohida o'rin tutadi. Ulardan mastava, sho'rva, lag'mon, chuchvara, makaron va boshqa ovqatlar. Bu taomlar qovurib yoki qaynatib tayyorlanadi.

**Amaliy mashg'ulot:** Milliy taomlardan «Mastava» tayyorlash

### **Mastava**

I. Mastava — suyuq taom. Ilgari mastava suzma, qatiqdan olingan zardobga guruchni qaynatib tayyorlangan. Hozirgi davrda esa uni yog', sabzi, piyoz, pomidor, bulg'or garmdorisi, guruch va boshqa masalliqlardan tayyorlanadi. Solinadigan masalliqlar va tayyorlash usuliga ko'ra qaynatma, qovurma, olchali, qiymasi, xo'rda mastava kabi turlari bor. Mastava uchun yog'liq qo'y go'shtidan qiyma qilinadi. Unga piyoz va murch aralashtirib, kichik-kichik qilib dumaloqlanadi. Qozonda go'shtdan ajratilgan suyakni qaynatiladi, so'ngra ularni suzib olib sho'rvasiga guruch va dumaloqlangan qiymalarni solib past olovda mildiratib qaynatiladi. Mastavaga kubchalar shaklida to'g'ralgan sabzavotlardan (sabzi, kartoshka, pomidor, shoig'om) qo'shsa ham bo'ladi (2- rasm).



**2-rasm.**

**Mastavaga to'g'raladigan  
sabzavotlar shakli.**

II. Qo'y go'shti va yog'ini kubcha shaklida to'g'raysiz. Yog'ini eritib, suzib olasiz-da, go'shtini solib yaxshilab qovurasiz. Go'sht qovurilib yetilgach, piyoz va pomidor solasiz. Pomidor ezilib, masalliq qizil tusga kirgandan so'ng kubcha qilib to'g'ralgan sabzi va kartoshkani solib, yana 5—6 minut qovurasiz, so'ngra suvni quyib 20 minut qaynatasiz. Sho'rvasi pishgach, tuz, ziravorlar va tayyorlangan guruchni solib qaynatasiz. Taom tayyor bo'lgandan keyin olovni o'chirib, 5—6 minut dam yedirasiz. Mastava kosalarda ustiga kashnich, ko'k piyoz sepib tortiladi.

**Mahsulotlar miqdori:** 500 g go'sht, 100 g yog', 2 dona sabzi, 2 bosh piyoz, 3-4 dona pomidor, 3 dona kartoshka, 300 g guruch, tuz va ziravorlar.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. Taomning sifati qanday aniqlanadi?
2. Kartoshkada qanday to'yimli modda bor?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

## 6-sinf. № 15-16 dars.

**Mavzu :** O'zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish tartibi.

**Amaliy mashg'ulot:** parhez taomlar tayyorlash

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga o'zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari haqida tushuncha berish, o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarda qiziqishiga ko'ra pazandachilik sirlarini o'rgatib borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni uy-ro'zg'or ishlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG'sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg'otish.

**Dars jihozi:** Ko'rgazmali rasmlar, parhez taomlar uchun kerakli masalliqalar..

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg'ulot, savol-javob, suhbat.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Taomlarni dastirxonga tortishni o'rganish             |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** O'zbek milliy taomlaridan parhez taomlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish tartibi.

Parhez taomlar shifobaxsh ovqat hisoblanib, u xar-xil kasalliklarga qarshi davo qilish maqsadida yoki kasallikning oldini olish maqsadida tayyorlanadi. Va iste'mol qilinadi. Parhez taomlarni tayyorlashda bemorning holatiga qarab masalliq tanlanadi.

Masalan tuzsiz taom tayyorlash kerak bo'lsa, tuz o'rniga qant upasi, shakar, sirka, limon kislotasi yoki asal, mevalar qo'shib shirin yoki nordan taom tayyorlanadi.

Parhez taomlar dimlab yoki bug'da pishiriladi. Undan tashqari uni qaynatib ham pishirish mumkin. Parhez taomlar kasalliklar turiga qarab raqamlab qo'yiladi. Parhez taomlar oshxonalarida, dam olish sihatgohlarida ovqat shu raqam asosida beriladi.

**Amaliy mashg'ulot:** Parhez taomlar tayyorlash. Quyida parhez taomlardan sho'rva tayyorlashni ko'rsatib o'tamiz.

### **Karam sho'rva**

Go'shtni tozalab, bo'laklarga bo'lasiz. Qaynab turgan suvga go'shtni solib, so'ngra piyoz solasiz va to'g'ralgan pomidor solasiz. So'ng sho'rvaga somon shaklida to'g'ralgan sabzi va parrak-parrak qilib to'g'ralgan kartoshkani tashlaysiz. Shundan keyin sho'rvaga bulg'or qalampir, tuz, lavr yaprog'i, mayda qilib to'g'ralgan karam solib qaynatasiz, olovni biroz yuqorilatib, pishirishni yana 35—40 minut davom ettirasiz. Tayyor taomni kosalariga suzib betiga murch va osh ko'klardan sepib dasturxonga tortasiz.

*Mahsulotlar miqdori:* 500 g go'sht, 150 g yog', 2 bosh piyoz, 3—4 dona pomidor, 2—3 dona kichikroq sabzi, 300 g kartoshka, 300 g karam, 1 dona qalampir, 2—3 ta lavr yaprog'i va ta'bga ko'ra tuz ishlatiladi.

**E s 1 a t m a :** Sho'rva qattiq qaynab ketsa, oq ko'pik paydo bo'ladi va uning rangi buziladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Taomning sifati qanday aniqlanadi?
2. Kartoshkada qanday to'yimli modda bor?
3. Parhez taomlarning afzalligini tushuntiring.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 17-18 dars.**

**Mavzu :** Dasturxon, salftka-sochiqlarning turlari, ulardan foydalanish, saqlash va yuvish.

**Amaliy mashg'ulot:** Tushlik uchun dasturxon tuzash.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga dasturxon, salftka-sochiqlarning turlari, ulardan foydalanish, saqlash va yuvish talablari haqida tushuncha berish. Tushlik uchun dasturxon tuzashni o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalab borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni uy-ro'zg'or ishlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, MIG'sini ongiga singdirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish bilan birga pazandachilik sohasiga qiziqish uyg'otish.

**Dars jihozi:** Ko'rgazmali rasmlar.

**Darsning turi:** Suhbat bahs munozara.

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg'ulot, savol-javob, suhbat.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Sochiq va salfekalardan foydalanishni o'rganish       |
|   |                                                            |           |                                                       |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.


**Yangi dars bayoni:** Dasturxon, salftka-sochiqlarning turlari, ulardan foydalanish, saqlash va yuvish.

Odatda ro'zg'orda dasturxon, sochiq , salfetkalardan foydalanish oilada qizlar, onalar zimmasiga yuklatiladi. Bunda kundalik, mexmonlar uchun, marosimlar uchun alohida dasturxon, sochiq , salfetkalardan foydalaniladi. Ularni tanlash har bir bekaning o'zini didiga bog'liq. Oq yoki ochiq rangdagi dasturxon, sochiq , salfetkalardan foydalanib bo'lgandan keyin uni tezda maxsus kir yuvish vositalaridan foydalanib yuvib qo'yish zarur. Aks holda undagi dog'larning chiqishi qiyin bo'lib qoladi.

Kundalik ishlatiladigan dasturxon, sochiq , salfetkalardan foydalanishda ham ularni ozoda saqlashga harakat qilishimiz kerak. Bu avvalo sog'limiz uchun katta foyda beradi. Ularni ozoda saqlash qizlarimizni orastalini bildiradi. Dasturxon atrofida o'tirganda kayfiyatni a'lo darajada bo'lishi orastalikka bog'liq, orastalik esa sog'ligimiz parvarishidir.

**Amaliy mashg'ulot:** Tushlik uchun dasturxon tuzash.

Tushlik dasturxonini bezatishda 3-rasmdagidek oshxona servizi va asboblardan foydalaniladi. Stolga toza yuvilgan, yaxsfai dazmollangan dasturxon yoziladi va non, tuz, murch qo'yiladi.



**3-rasm. Dasturxon bezash**

Agar tushlik ovqatda salat, suyuq, quyuq va shirali taomlar bo'lsa, har bir xo'randaga mayda tarelkalar va vilkalar qo'yiladi. Salat va mevalar alohida tarelkada dasturxonga qo'yiladi. Dasturxonni bezashda tarelkaning o'ng tomoniga qoshiq va pichoq, chap tomoniga vilka qo'yiladi. Dasturxondagi umumiy salat va vinegretlar uchun alohida qoshiqlar bo'ladi. Hamma o'ziga kerakliya oldidagi alohida likobchaga solib, iste'mol qiladi. Agar o'rtaga pishloq, kolbasa qo'yilgan bo'lsa, albatta o'zi foydaianayotgan vilka bilan oladi va iste'mol qiladi. Dasturxonni yig'ishtirishda maxsus patnisdan foydalanish mumkin. Ovqatlanish paytida dasturxonda ortiqcha idishlar va asboblari bo'lmasligi uchun taomlarning tartibiga qarab, yig'ishtirib turiladi. Masalan, ovqatlanishdan oldin salat qo'yiladi, so'ng suyuq ovqat kosalarda har bir kishining yoshiga qarab tortiladi. Ketidan quyuq ovqat tortiladi.

Ovqatlanib bo'lingandan keyin dasturxonning usti yig'ishtiriladi. Ortiqcha narsalar olib qo'yiladi. Keyin choy yoki sharbat shirinliklar bilan iste'mol qilinadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 19-20 dars. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi. Umumiy tushunchalar.**

**Mavzu :** Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari. Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi. Jun va ipak tolalarning xossalari

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, ularning xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari haqida umumiy ma'lumot berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar, sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablar haqida tushunchalar berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda gazlamashunoslikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Gazlamashunoslik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Jun va ipak tolali gazlamalarni ajratish              |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari. Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi. Jun va ipak tolalarning xossalari.

**Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari.**

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o'quv xonasi sanitariya-gigiyena talablari, mehnat va xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga javob berish kerak. Xonaning harorati 19-21°C bo'lishi kerak. Xona o'z vaqtida shamollatib turilishi lozim. Xonaning havosi deraza, eshik orqali hamda mexanik usulda ventilatordan foydalanib almashtiriladi. Bundan tashqari qish faslida xonani maxsus isitish tarmoqlari yordamida isitiladi.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi o'quv xonasi yaxshi yoritilishning muhim ahamiyati bor. Yoritish yaxshi bo'lmasa, mehnat qobiliyati pasayadi, ko'z toliqadi va shikastlanishi mumkin. O'quvchilarning mehnat qobiliyatlari yanada yaxshi bo'lishi uchun xonalami quyosh tushishiga qarab och ranglarga bo'yash kerak.

Ish joylari yoniga o'ziga mos bo'lgan mehnat xavfsizligi qoidalari osib qo'yiladi. Xonada baxtsiz hodisa ro'y berganda zarur bo'ladigan birinchi yordam dori qutisi albatta bo'lishi kerak. Dori qutisi yonida yaqin davolash maskanining manzili va unga borish chizmasi osib qo'yilgan jadval turishi kerak.

### **Jun va ipak gazlamalar**

Jun gazlama hayvonlardan olinadigan jun tolalaridan to`qiladi. Junni ko`proq O`rta Osiyo, Zakavkazye, Ukraina, Sibir beradi. Hayvonlarning juni maxsus qaychi yoki mashina bilan bir yilda ikki marta olinadi. Olingan jun tozalanadi, ya`ni unga birinchi ishlov beriladi, sortlarga ajratiladi, sovunli va sodali issiq suvda yuviladi, maxsus mashinalarda quritiladi.

Ipak gazlama ip tolalaridan to`qiladi. Ipak tolalari ipak qurtlari o`ragan pilladan olinadi. Ipak qurtlarining urug`larini bahorda bir oy mobaynida tut daraxtining bargi bilan boqib parvarishlanadi. Pilla tayyor bo`lgandan keyin tezlik bilan pilla zavodlariga topshiriladi, aks xolda, kapalak ochib ketadi. Tayyor pillalar zavodga topshirilishi bilan dorilanadi. Bitta pilladan uzunligi 700—800 m ipak olinadi. Pillani asosan O`rta Osiyo, Moldaviya, Uzoq Sharq yetishtiradi. Tayyorlangan pillaga birinchi ishlov beriladi. Ipak ajratadigan fabrikalarga yuborish uchun ular bug`lanadi, ichidagi kapalagi o`ldiriladi va issiq havoda quritiladi. Pilla sortlari bo`yicha qabul qilinadi.

Ipak ajratish fabrikasida pillalarni suvga solib, uchlarini topib 3—4 tasini birlashtirib bobinalarga o`raladi, bu ishlarni katta-katta dastgoxlarda bajariladi. Tayyorlangan ipaklarni gazlama to`qiladigan fabrikalarga yuboriladi. Ipaklardan tola va gazlama tayyorlash uchun avtomat, yarim avtomat dastgox, va mashinalarda tekislovchi, ajratuvchi, aylantiruvchi, o`rovchi, to`quvchi kabi ishchilar ishlaydi.

**Jun va ipak tolasidan tayyorlangan gazlamalar, ularning xususiyatlari.** Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan gazlamalar tolaviy tarkibiga ko'ra tabiiy va kimyoviy tolali gazlamalarga bo'linadi. Tabiiy tolali gazlamalarga paxta, zig'ir, jun, ipak tolalaridan olinadigan gazlamalar kiradi.

**Jun tolalari** qo`y ,echki va turli xil hayvonlar yungidan olinadi. Ipak esa ipak qurti pillasidan olinib, ipak qurti 30-35 kun aprel oyidan may oyining oxirigacha tut bargi



bilan boqilgan qurtdan olinadi. Ipak qurti pilla o'raydi, shu pillani terib olinib undan ipak ishlab chiqariladi.

**Jun** tolasidan to'qilgan gazlamalar issiqni yaxshi tortadi, g'ijimlanadi, suv shimadi, yonganda tutaydi va kul hosil qiladi. Bu gazlamalardan qalin kiyimlar kastyum-shimlar va paltolar uchun gazlamalar ishlab-chiqariladi.

**Ipakdan** to'qilgan gazlamalar mayin, suv shimadigan oson dazmollanadi. Ipak tolasidan atlas, adras, shoyi kabi gazlamalar to'qiladi.

Jun gazlama sidirg'a, katak, yo'l-yo'l va gulli bo'ladi. Ipak gazlama yumshoq, silliq, yaltiroq, juda chidamlı, yengil, kam g'ijimlanadigan bo'lib, yaxshi dazmollanadi, chiroyli ko'rinadi.

Ipak gazlama sidirg'a gulli, o'zidan chiqqan gulli, hal-xal va boshqa turlarda ishlab chiqariladi.

Gazlamalarning xossalari jadvalda ko'rsatilgan.

| Gazlamaning xossalari        | Gazlamalar |          |          |         |
|------------------------------|------------|----------|----------|---------|
|                              | Ip gazlama | Kanop    | Jun      | Ipak    |
| <b>Fizik-mexanik xossasi</b> |            |          |          |         |
| Chidamliligi                 | o'rtacha   | yuqori   | kamroq   | yuqori  |
| G'ijimlanishi                | o'rtacha   | ko'p     | kam      | kam     |
| Tovlanishi                   | kam        | kam      | o'rtacha | yuqori  |
| <b>Gigienik xossasi</b>      |            |          |          |         |
| Havo o'tkazishi              | ancha      | ko'p     | ancha    | ancha   |
| Chang olishi                 | o'rtacha   | kam      | ko'p     | ko'proq |
| Issiqni saqlashi             | o'rtacha   | bo'sh    | yuqori   | ko'proq |
| <b>Texnik xossasi</b>        |            |          |          |         |
| Kirishuvchanligi             | ancha      | ancha    | ancha    | ancha   |
| Sitiluvchanligi              | bo'sh      | o'rtacha | o'rtacha | ancha   |
| Sirg'aluvchanligi            | kam        | o'rtacha | o'rtacha | ancha   |

### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Gazlama bilan ishlash xonasida xavfsizlik texnikasining asosiy qoidalarini ayting.
2. O'quv xonalarida qanday sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinadi?
3. Gazlama bilan ishlash xonasida ichki tartib-qoidalarini ayting.
4. O'quvchining ish o'rni qanday yoritiladi?
5. Ipak tolalari gazlamalarga nimalar kiradi?
6. Jundan tayyorlangan gazlamalar, ularning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

### Dars yakuni.

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'qilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 21-22 dars.**

**Mavzu :** Amaliy mashg'ulot: jun va ipak gazlamalarning xossalari aniqlash.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga jun va ipak tolalarning xususiyatlarini, xossalarini va sirlarini o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarda gazlamashunoslik ishlarida qo'yiladigan talablarni o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda gazlamashunoslikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.

### **Darsning borishi:**

| No | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|----|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1  | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2  | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3  | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4  | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5  | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6  | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7  | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8  | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Gazlamalarni xossalarini aniqlash                     |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Amaliy mashg'ulot: jun va ipak gazlamalarning xossalarini aniqlash.

Jun va ipak tabiiy tola hisoblanib, ular tabiatdan sof holda ya'ni qo'y, echki, tuyadan – jun tola ipak qurti pillasidan ipak tolasini olinadi.

Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan gazlamalar tolaviy tarkibiga ko'ra tabiiy va kimyoviy tolali gazlamalarga bo'linadi. Tabiiy tolali gazlamalarga paxta, zig'ir, jun, ipak tolalaridan olinadigan gazlamalar kiradi.

Tolalar olinishiga qarab turli sortlarga bo'linadi. Uzun va ingichka toladan eng yaxshi, sifatli gazlama to'qiladi.

Jun tolasini juda egiluvchan bo'lib, ortiqcha gijimlanmaydi, namni sekin tortadi va sekin bug'lanadi. Nam va issiq ta'sirida cho'ziladi, yana o'z holiga qaytib keladi.

Ipak tolasini juda silliq bo'lib, tez gijimlanadi, mayin, suvda pishiqligini yo'qotmaydi. Suvni yaxshi shimadi, tez quriydi va yaxshi bo'yaladi. Tabiiy ipak maxsuloti poroshokda yuviladi.

Jun tolasini qora, oq, jigarrang va sariq rangda bo'ladi. Ipak tolasini esa oq rangda bo'lib, uzunligi 700-800 mm ingichka bo'ladi.

Jun gazlama chiroyli va chidamli. U o'zida issiqni saqlash xususiyati bilan boshqa gazlamalardan farq qiladi. Jun gazlama kam gijimlanadi, yaxshi dazmollanadi, lekin unga chang ko'p o'tiradi. Jun gazlama sidirg'a, yo'l-yo'l va gulli bo'ladi. Ipak gazlama esa yumshoq, silliq, yaltiroq, juda chidamli, yengil, kam gijimlanadi. Yaxshi dazmollanadi, chiroyli ko'rinadi. Ipak gazlama hol-hol, gulli, sidirg'a va boshqa turlarda ishlab chiqariladi.

### **Jun va tabiiy gazlamaning xossalarini aniqlash**

Kerakli asbob va moslamalar: nina; gazlama namunalari, daftar, lupa, kislota.

Ishni bajarish tartibi:

1. Har bir gazlama namunasidan nina bilan bo'ylama iplar sug'urib olinadi. Jun va tabiiy ipaklarni bir-biridan ajratiladi. Yo'g'onligini, ipning pishiqligini uzib ko'riladi va farqini ajratiladi.

2. Uzilgan iplar uzilgan joydagi jingalakliklarning farqi ajratiladi.

3. Qaysi bir gazlama namunasining yaltiroqligi aniqlanadi.

4. Qaysi bir gazlama namunasining yumshoqligi aniqlanadi.

5. Gazlama namunalari sochiluvchanligi tekshiriladi.

6. Gazlama namunalari gijimlab ko'rib, qaysi biri ko'proq gijimlangani tekshiriladi. Mana shu ishlar bajarilgach, jadval to'ldiriladi.

| Gazlama        | Ipakning xossasi |                            | Junning xossasi               |                                    |
|----------------|------------------|----------------------------|-------------------------------|------------------------------------|
|                | Yo'g'onligi      | Pishiqligi<br>jingalakligi | Jingalakligi ,<br>yumshoqligi | Yaltiroqligi ,<br>sochiluvchanligi |
| 1. Jun         |                  |                            |                               |                                    |
| 2. Tabiiy ipak |                  |                            |                               |                                    |

### **Foydali maslahatlar**

1. Ust tomoni yaltirab qolgan gazlamani uksusli aralashmaga botirilgan tozalagich bilan artilsa, yaltirogi yo'qoladi.


2. Agar rangli kiyimlarni yuvishdan oldin 20—25 daqiqa tuzli suvga ivitilib qo'yilsa, rangi aynimaydi.

### Gazlamalarni tukishning turlari

Ma'lumki, gazlamalar bo'ylama va ko'ndalang iplarning chatishishidan hosil bo'ladi. Iplar gazlamada har xil chatishadi.

Gazlamalarning ko'rinishi va xususiyatlari uning tukilishiga bog'liq bo'ladi. 5-sinfda polotnning tukilishi o'rganilgan, endi sarja, satin, atlasning tukilishini ko'rasiz (1-rasm, *a* — polotno, *b* — satin, *v* — atlas, *g* — sarja to'qimalari).

Sarja tukilishida — bo'ylama ip ikkita kundalang ipni yopadi, birini o'tkazib yana ikki ko'ndalang ipni yopadi. Har gal shunday takrorlanadi. Sarja diagonal to'kima bo'lib, yumshoqdir. Sarja usulida qalin og'ir gazlamalar: kashemir, shotlandka, paxmoq kabi gazlamalar to'qiladi.



1-rasm

Satinning to'qilishida ko'ndalang ipning to'rttasi bo'ylama ipakning bittasini yopadi, atlas to'qishda esa buning aksi bo'ladi. Satin va atlasning to'qilishi sarja va polotnning

to`qilishiga qaraganda pishiqroq, og`irroqdir. Bu to`qimada satin, atlas, krep, kalamenka, krepsatin, astarlik satin va xokazolar to`qiladi. Bunday gazlamalardan ko`proq kiyim tikishda foydalaniladi. Bu gazlamalar sitiluvchan bo`ladi, buni kiyim tikishda va unga texnologik ishlov berishda xisobga olish kerak.

### **Darsni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Tabiiy tolalarning turlarini ayting.
2. Qaysi tolalar isitish qobiliyatiga ega?
3. Nima uchun ba`zi gazlamalar kirishuvchanlik, sitiluvchanlik, sirg`aluvchanlik xossalariga ega bo`ladi?
4. Jun tolasi qaysi hayvonlardan olinadi?
5. Ipak tolasining uzunligi qancha ?
6. Jun va ipak qanday tola hisoblanadi?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## **6-sinf. № 23-24 dars . Asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanish**

**Mavzu :** Furnitura haqida umumiy ma'lumot. Ilgaklar, halqalar tikish, tugmachalar va pistonlar qadash. Taqilma turlari.

**Amaliy mashg'ulot:** «Molniya» taqilmasini tikish. **3-nazorat ishi**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga furnitura haqida umumiy ma'lumot berish. Ilgaklar, halqalar tikish, tugmachalar va pistonlar qadashga o`rgatish. Taqilma turlari bilan tanishtirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda gazlamashunoslikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

### **Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Tugma qadashni o`rganish                              |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Furnitura haqida umumiy ma'lumot. Ilgaklar, halqalar tikish, tugmachalar va pistonlar qadash. Taqilma turlari.

**Amaliy mashg'ulot:** «Molniya» taqilmasini tikish.

Furnitura – bu tugma , ilgak , piston, halqa, molniya va hokazolar tushuniladi. Furnituralar qadash vazifasini bajarish bilan birga u bezak vazifasini ham bajaradi. Tugmalar turli xil ko'rinishda bo'ladi. Ular yog'ochdan, metallardan , plastmassa va shishadan yasaladi. Ular qo'ziqorinsimon , yassi, 2,4 teshikli bo'ladi.

Tugma shakli , ranggi, hajmi kiyim modeliga qarab , gazlama turiga, guliga qarab tanlanadi. Shu bilan birga tugma ranggida ip tanlanadi.

Molniya – yubkalarga, shimlarga , issiq kiyimlarga , ko'ylaklarga, kurtkalarga qadash uchun tikiladi. Molniya tikishda gazlama ranggiga qarab tanlanadi. Ko'ylak va yubkalarga esa ko'rinmas qilib qadab qo'yiladi. Molniyalar ham bezak vazifasini bajaradi. Molniyalar metallardan va plastmassadan tayyorlanadi.

### **Amaliy mashg'ulot.**

O'quvchilar olib kelgan molniya va gazlamalardan foydalanib molniya tikishni o'rganamiz.

### **Darsni mustahkamlash.**

1. Furnitura nima ?
2. Tugmalar nimalardan tayyorlanadi?
3. Ilgak qanday qadaladi?
4. Pistonlar necha xil bo'ladi?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

## 6-sinf. № 25-26 dars . Mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish

**Mavzu :** Oyoq yuritmalı tikuv mashinasining tuzilishi. Ishlash prinsipi. Amaliy mashg'ulot: Oyoq yuritmalı tikuv mashinasini ishlashga tayyorlash.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga oyoq yuritmalı tikuv mashinasining tuzilishi, ishlash prinsiplarini o`rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarda oyoq yuritmalı tikuv mashinasini ishlashga tayyorlash ishlarida qo`yiladigan talablarni o`rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda tikuv mashinalariga bo`lgan qiziqishi, bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O`quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar.  
2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vaqti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Tikuv mashinasini ishga tayyorlash                    |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.



Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Oyoq yuritmalı tikuv mashinasining tuzilishi. Ishlash prinsipi.


Tepki kriboship va shatun orqali oyoq yuritmalı tikuv mashinasida asosan 12ta mexanizm bor.

1. Bosh g`ildirak.
2. Korpus.
3. Tasma
4. Platrerma
5. Harakatga keltiruvchi g`ildirak
6. To`sqich reshetka
7. Tepki
8. Cho`yon yondor
9. Stol qismi
10. Asboblar qo`yiladigan tortma
11. Mashinaning bosh qismi
12. Oyoq tepki o`rnatiladigan joy.


### Oyoq uzatmaning tuzilishi

Oyoq mashinasi xarakatni oyoqdan tepki orqali oladi. Tepki xarakatni krivoship va shatun orqali katta g`ildirakka uzatadi, undan tasma orqali bosh g`ildirak xarakatga kelib asosiy o`qni ishga tushiradi (2-rasm): 1 — asosiy o`q; 2 — shkiv; 3 — tasma; 4 — harakatga keltiruvchi katta g`ildirak; 5-tasmani g`ildirakdan chiqaradigan asbob; 6- to`sqich reshetka; 7-krivoship; 8-shatun; 9-tepki.

Oyoq yuritmalı tikuv mashinasida ishlaganda x.t.q. va sanitariya gigiyena talablariga rioya qilish kerak.



1-rasm



2-rasm

## **Oyoq yuritmalı tikuv mashinasida ishlashdagi sanitariya-gigiyena, xavfsizlik texnikasi qoidaları (3-rasm)**

1. Ish o'rniga yorug'lik oldi yoki chap tomondan tushishi lozim.
2. O'rindiqni mashina ignasining to'g'risiga qo'yib, boshni sal oldinga egib o'tirish kerak.
3. Tikuvchi bilan mashina orasi 10-15 sm bo'lishi kerak.
4. Sochlar ro'mol ostiga yig'ishtirilgan bo'lishi kerak.
5. Mashinalar, asbob-uskunalarni yaroqliligini tekshirib turish kerak.
6. Mashinada ishlayotganda qo'l holatini to'g'ri bo'lishiga e'tibor berish kerak.
7. Ishlayotgan mashinani moylash, ustidan narsalarni uzatish mumkin emas.


### **Tikuv mashinasida ishlashda xavfsizlik qoidaları .**

#### **I. Sanitariya-gigiyena qoidaları:**

1. Mashina ignasiga old yoki chap tomondan yorug'lik tushib turishi kerak.
2. Tikuvchining stuli ignaning to'g'risida bo'lishi lozim.
3. Tikuvchi tirsagi mashina stoliga to'g'ri kelishi kerak.
4. Odam tanasi mashina stolidan 10-15 sm narida bo'lib, gavdani to'g'ri tutib, boshini sal egib o'tirishi lozim.
5. Ignadan ko'zgacha oraliq 30-35 sm bo'lishi lozim .

#### **II. Xavfsizlik texnikasi qoidaları:**

1. Maxsus kiyim (fartuk) kiyilgan, sochlar ro'mol bilan o'ralgan bo'lishi kerak.
2. Mashina ustidan ortiqcha narsalarni olish, qaychi o'ngda tortmada bo'lishi kerak.
3. Tikayotgan buyum orasida to'g'nag'ich bo'lmasligi kerak.
4. Mashinada ishlashdan oldin uning ignasini va tepkisini to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish lozim.
5. Mashinada ishlayotganda diqqatni buzmaslik, harakatdagi qismlariga yaqin bormaslik kerak.



**3-rasm**

### **Tikuv mashinasi quyidagi tartibda ishga tayyorlanadi:**

1. Baxya yuritgichni rostlash. Baxyaning yirikligi gazlama qalinligi va turiga bog'liq holda tanlanadi (0-4 mm gacha).

Igna o'rnatiladi. Igna eng yuqori holatga keltirilib, 3-vint bo'shatiladi. 1-igna ariqchasi ip o'tkaziladigan tomonga to'g'rilanadi va 2-igna tutgich teshigiga kiritib mahkamlanadi.

2. Naychaga ip o'raladi. Mashina salt holatga keltirib, naychaga ip o'raladi



3. Ostki va ustki iplar taqilib mashina ishga tayyorlanadi.

### **Naychaga ip o`ragich**

Tikuv mashinalarida naychaga ip o`raydigan maxsus mexanizm bo`lib, u mashinaning o`ng tomonida, bosh g`ildirakka yaqin joyga — mashina tanasining ichiga o`rnatiladi. Naychaga ip beradigan moslama esa mashina asosiga — platformaga o`rnatiladi (4-rasm).

### **Naychaga ip urash uchun moslama (5-rasm):**

1 — ipning o`ralishini tekislab turadigan plastinka; 2 — ip o`raladigan naycha; 3 — naychani ushlatadigan novi; 4 — naychani o`rnatiladigan g`ildirak; 5 — naychani ushlaydigan tish; 6 — rezina g`ildirak; 7 — rezina kiydiriladigan g`ildirak; 8 — richag; 9 — mexanizmlardagi ushlagich; 10 — bosh g`ildirak (maxovik), 11 — asosiy o`q.



**4- 5 rasm. Naychaga ip urash uchun moslama**

### **Naychaga ip urashii mashq qilish**

1. Mashinani salt xolatga keltiriladi.
2. G`altakni g`altak ustuniga qo`yib, ipni bir me`yorda o`tkazadigan plastinkalar orasidan o`tkaziladi.
3. Naychaga qo`lda biroz ip o`rab ip o`ragichga (motalkaga) o`rnatiladi.
4. Bosh g`ildirakni aylantirib, naychaga ip to`lguncha o`raladi.
5. Ipni uzib naycha olinadi va mokiga o`rnatiladi.

## Mashina ninasi

Mashina ninasi uning eng asosiy detallaridan bo`lib, u ustki ipni nina plastinkasi tagiga olib o`tishda va ustki ipdan xalqa hosil qilishda yordam beradi. Mashina ninasi mashinalarning turiga, ya`ni bajaradigan ishiga qarab turlicha bo`ladi (6-rasm). Ninalar eng yuqori sifatli po`latdan tayyorlanadi.

Mashina ninasi uch asosiy qism: kolba, ariqchali va o`tkir nayza qismlaridan iboratdir (7-rasm).

Kolba qismining bir yon tomoni yassi bo`ladi. Ariqcha qismi ham kichik diametrli bo`lib, gazlamani teshib o`tishni osonlashtiradi. Ninaning uchi o`tkir bo`lib, teshikning ikki tomoni ariqchali: biri kalta, ikkinchisi uzunroq bo`ladi.

Mashina choki sifatli chiqishi uchun ninani to`g`ri tanlash shart. Uning nomeri 75 dan — 150 gacha bo`lib, kolba qismiga yoziladi. Ninaning nomeri ortgan sari u yo`g`onlashadi. Nina tikilayotgan gazlamaning turiga, ya`ni uning qalin-yupqaligiga qarab tanlanadi (1-jadval).



**6-7 rasmlar**

1-jadval

| Gazlama               | Ninaning nomeri | Ipning nomeri |              |
|-----------------------|-----------------|---------------|--------------|
|                       |                 | ip gazlama    | ipak gazlama |
| Yupqa ipak, batist    | 75              | 80            | 65           |
| Polotno, chit, satin  | 90              | 60—80         | 33           |
| Pahmoq, jun, tovar    | 100             | 40—60         | 18,13        |
| Tik                   | 110             | 40            | -            |
| Kostyumbop gazlamalar | 120             | 30—40         | -            |
| Paltobop gazlamalar   | 120—150         | 30—40         | -            |

**Amaliy mashg'ulot:** Oyoq yuritmalı tikuv mashinasini ishlashga tayyorlash. Oyoq yuritmalı tikuv mashinasi harakatni oyoq tepkidan tasma orqali oladi. O`quvchilar bilan oyoq yurutmalı tikuv mashinasini ishga tayyorlashni, mashinada o`tirishni mashq qilish.

1. Mashinani salt xolatga keltirib mashq qilinadi.

2. O`ng qo`l bilan bosh g`ildirakni ushlab, o`ng oyoqni yuqoriroq, chap oyoqni esa pastroq qo`yib, bosh g`ildirakni o`ziga tomon aylantirib, oyoqni tebratib tepkini xarakatga keltiriladi.

3. Mashinani to`xtatishda tepkini tebratmay to`xtatish kerak, o`ng qo`l bilan bosh g`ildirakni ushlash kerak.

### **Mashq bir necha bor takrorlanadi**

1. Mashinani ish xolatiga keltirib mashq qilinadi.

2. Tepkning tagiga gazlama qo`yiladi va tepkini tushiriladi.

3. Mashinaning bosh g`ildiragini xarakatga keltirib, gazlama orqaga tomon suriladi.

### **Mashina ninasini o`rnatish**

1. Nina ustunining sterjeni yuqoriga ko`tariladi.

2. Ninaning ushlagich vinti bo`shatiladi.

3. Nina uyasiga o`rnatiladi.

4. Ninani pastga tushirib, plastinkadan to`g`ri o`tishi tekshiriladi.

5. Ustki va ostki ipni o`tkazib tikib ko`riladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tikuv mashinalarining turlarini sanab bering.

2. Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarining qanday asosiy qismlari mavjud?

3. Oyoq yuritmalik tikuv mashinasining tuzilishini izohlang.

4. Tikuv mashinasida ishlaganda qanday xavfsizlik texnikasi talablariga amal qilinadi?

5. Tikuv mashinasida ishlaganda qanday sanitariya-gigiyena talablariga amal qilinadi?

6. Tikuv mashinasini ishga tayyorlash tartibini aytib bering.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 27-28 dars.

**Mavzu :** Tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanish. Tikuv mashinasidagi kichik nosozliklarni tuzatish.

**Amaliy mashg'ulot:** Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanishni, tikuv mashinasidagi kichik nosozliklarni tuzatish o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarda tikuv mashinasida ishlashda uni saqlashga qo'yilgan talablarni o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda tikuv mashinalariga bo'lgan qiziqishi, bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, suhbat dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Ichki kiyim choklaridan na'munalar tikish             |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanish. Tikuv mashinasidagi kichik nosozliklarni tuzatish.

Tikuv mashinalarida ko'pgina sabablarga ko'ra nuqsonlar vujudga kelishi mumkin: mexanizmlarning , ish organlarining o'zaro ta'siri buzilishi, detallar yeyilishi, detallar yuzasi yuzasi tozaligining o'zgarishi mumkin. Tikuv mashinalarining asosiy nuqsonlariga baxyaqator sifatining pastligi, ip tashlab tikishi, ip uzilishi, materiallarning qiyin surilishi, igna sinishi kiradi.

Baxyaqator sifatining pastligi. Baxyaqator bo'sh (iplari yaxshi tortilmagan) bo'lsa, tarang yoki kir bo'lsa, shuningdek agar iplar "gazlamalar ustida chalishsa" yoki "gazlamalar tagida chalishsa" bunday baxyaqator past sifatli hisoblanadi.

Baxyaqator bo'sh bo'lganda iplar tikilayotgan materiallar orasida chalishadi, lekin materiallar bir-biridan qochib turadi. Bu kamchiliklarni yo'qotish uchun ostki va ustki ipni taranglash kerak. Baxyaqatorning ortiqcha tarangligi iplarning haddan tashqari tarangligidan kelib chiqadi. Bunday baxyaqator tikilgan materiallarning baxyaqator chizig'i bo'ylab tortilsa, baxyaqator iplari osongina uzilib ketadi. Bunday kamchiliklarni tashqi ko'rinishdan aniqlasa bo'ladi. Bunda baxyaqator ko'ndalangiga terilib qoladi. Bu nuqson ustki va ostki ip tarangligini bo'shatib bartaraf etiladi.

Ip tashlab tikilishi igna bilan mokining o'zaro harakatlarida moslik buzilsa sodir bo'ladi. Ignaning noto'g'ri ishlashiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: 1.

1. Nuqsonli igna o'rnatilgan uchi to'mtoq bukilgan;
2. Ignaning raqamli belgisi va nomeri noto'g'ri tanlangan;
3. Igna balandligi noto'g'ri o'rnatilgan (baland yoki past);
4. Tepki yoki igna plastinasi , igna uchini chapga burib yuboradigan qilib noto'g'ri o'rnatilgan;
5. Iplar noto'g'ri taqilgan;
6. Igna ariqchasi moki uchiga nisbatan teskari o'rnatilgan;
7. Igna mexanizmining birikmalari yeyilgan.

Quyidagilar esa mokining noto'g'ri ishlashiga sabab bo'ladi: moki noto'g'ri rostlanganligi uchun uning uchi orasidagi tirqish noto'g'ri rostlangan; moki mexanizmining birikmalari yeyilgan yoki bo'shab ketgan. Ip tashlab tikilish sabablarini igna mexanizmidan boshlab aniqlash kerak.

Ustki ipning uzilishi. Quyidagilar ustki ipning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin: ipning sifatsizligi; izlarning haddan tashqari tarangligi; ipning noto'g'ri taqilishi; igna nomeri ip nomeriga mos kelmasligi; ip vaqtida tushmasligi yoki baxyaning tortilib qolishi ; mokining haddan ortiq qizib ketishi; ip yo'naltirgichlarining yomon holatdaligi (qirilgan, g'adir-budur) yoki ip yo'naltirgichlardan ba'zilarining yo'qligi , igna plastinasi teshigida , moki komplektida tepki tagida qirilgan yoki g'adir- budur joylar bo'lishi.

Ostki ipning uzilishi. Ostki ip kamroq detallarga tegib o'tadigan bo'lgani uchun uning uzilishi ustki ipga nisbatan ancha kam bo'ladi. Quyidagilar ostki ip uzilishiga sabab bo'ladi: naychaning devorlari singan yoki ezilgan, ip naychaga bo'sh yoki notekis o'ralgan, ip noto'g'ri taqilgan , moki komplekti detallarining ostki ip tegadigan joylari chaqalangan yoki g'adir-budur bo'lsa.




Materiallarning qiyin surilishi . bu kamchilik reyka yoki tepkning yaxshi ishlamasligidan kelib chiqishi mumkin. Quyidagilar reyka ishidagi kamchiliklar hisoblanadi: reykada nuqsonlar bo`lsa (tishlar singan , moy tekkan yoki tishlar o`tmashlagan, reyka noto`g`ri tanlangan) ; reyaning past-balandligi noto`g`ri o`rnatilgan yoki igna plastinasining o`yiqclariga nisbatan uning holati noto`g`ri bo`lsa, materialni surish mexanizmining birikmalari bo`shab qolgan yoki yeyilganda.

Ignaning sinishi. Quyidagi hollarda igna sinishi mumkin: agar igna harkat vaqtida birorta noto`g`ri turib qolgan detalga tegib o`tsa; igna balandligi noto`g`ri (pastroq) o`rnatilgan bo`lsa; tepkida, igna plastinasida , mokida lyuft bo`lsa yoki ular noto`g`ri o`rnatilgan bo`lsa; igna pastdaligida material surilsa; tikib bo`lgandan keyin materiallarni tepki tagidan ehtiyotsizlik bilan olinsa.


Mashina ishidagi boshqa kamchiliklar (igna tegadigan detallar singan yoki chaqalangan va g`adir-budur joylar bo`lsa) natijasida ham igna sinishi mumkin, shuning uchun tikish oldidan maxovik g`ildirakni aylantirib, igna o`z yo`lida birorta detalga tegmayotganligini tekshirib ko`rish tavsiya etiladi. Shundan keyingina ishlarni bajarishga kirishish mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarida va xonadonlarda ishlatiladigan tikuv mashinalarida har xil tepkilar qo`llanadi. Ular turli ishlarni bajaradi, mehnat unumdorligini oshiradi va ishning sifatini yaxshilaydi, ishchilarning vaqtini tejaydi. Natijada tikilayotgan buyumning tannarxi kamayadi. Buyum deyarli 98 foizi birinchi navga topshiriladi. 1 va 2-rasmda ichki kiyim choklarini tikishga mo`ljallangan tepkilar ko`rsatilgan.

Ikki yo`lli baxyaqator uchun maxsus chizg`ichdan foydalaniladi, shunda baxyaqator to`g`ri va tekis chiqadi.



1-rasm.



2-rasm

### **Tikuv mashinasidagi kamchiliklarni tuzatish.**

**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, ish stoli, tikuv mashinasi, otvyortka, mashina moyi, har xil nomerli iplar, mashina ninalari va gazlama kiytiklari.

1. Mashinada baxyaqator tikib, uning sifati tekshiriladi.




2. Qanday kamchilik ro'y berganligini aniqlanadi va uni tuzatiladi.
3. Tuzatilganini bilish uchun boshqatdan tikib ko'riladi.
4. Ishning natijasi yoziladi.

### Savollar:

1. Tikuv mashinasida qanday kamchiliklar bo'lishi mumkin?
2. Choklarni to'g'rilash uchun nimalar qilish kerak?
3. Ostki va ustki iplar bir-biriga qanday moslanadi?

**Amaliy mashg'ulot:** Ichki kiyim choklaridan namunalar tikish

Ichki kiyim chokini tikishda detallarning qirqimi chokning orasiga kirib turadi va shuning uchun bunday chok toza ichki kiyim choki deyiladi (3-rasm). Uning ikkiyoqlama va ichki chok deb ataladigan xillari bo'ladi.



3-rasm.

4-rasm (a,b,d)

**Asbob va moslamalar:** ish qutisi, 10x10 sm li gazlama.

### I. Ikki yoqlama chok namunasini tayyorlash.

Ishning tartibi:

1. Ikki gazlamani o'ngini ustiga qilib qo'yiladi, tugnagich qadaladi va ko'klab chiqiladi (4-rasm, a).
2. Keyin mashinada tikib, ko'klash choki so'kib tashlanadi va orasini yorib dazmollanadi. So'ng teskarisiga aylantirib, yo'rmab chiqiladi. Mashina chokida 0,7 sm qilib tikiladi (4-rasm, b).
3. Yo'rma choki olib tashlanadi va dazmollanadi. Namunaning chetlarini qirqib tekislanadi va petlya chokida tikiladi (4-rasm, d).

### II. Ichki kiyim choki namunasini tayyorlash.

Ishning tartibi:


1. Ikkita gazlamani o`ngini ichiga qilib qo`yiladi. Bunda pastdagi gazlamaning cheti 0,7 sm chiqib turishi kerak (5-rasm, a).

2. Pastdagi gazlamaning chetini ustiga buklab, yo`rmab chiqiladi va mashina chokida tikiladi (5-rasm, b).

3. Yo`rma choki olib tashlanadi va chokni o`ng tomonga yotqizib, ustidan mashina chokida bostiriladi (5-rasm, d).

4. Chokni bostirib dazmollanadi (5-rasm, g). Atrofini zig-zag qaychi bilan qirqib tashlanadi yoki petlya chokida tikiladi.

Tayyorlangan namunalarni albomning varag`iga yopishtiriladi.



5-rasm (a,b,d,g)

### Savollar:

1. Tikuv mashinasida qanday kamchiliklar bo`lishi mumkin?
2. Choklarni to`g`rilash uchun nimalar qilish kerak?
3. Ostki va ustki iplar bir-biriga qanday moslanadi?

### Dars yakuni.

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 29-30 dars. Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi

**Mavzu :** Beldan kiyiladigan kiyim turlari. Yubkalar haqida ma'lumot.  
O'lchov olish. **4-nazorat ishi**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga beldan kiyiladigan kiyim haqida umumiy ma'lumot berish

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarni qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari bilan tanishtirib borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda tikuvchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | 4- nazorat ishi o'lchov olish                         |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Beldan kiyiladigan kiyim turlari. Yubkalar haqida ma'lumot. O'lchov olish.

### **Yengil kiyimlar**

Ayollar va bolalarning kiyimlari, shuningdek, ichki kiyimlar yengil kiyimlar xisoblanadi. Yengil kiyimlarning hammasi asosan ikki guruxga: kamarli va yelkali kiyimlarga bo'linadi.

Kamarli kiyimlar guruxiga yubka, shim va lozim;

Yelkali kiyimlarga ko'ylak, bluzka, xalat va boshqalar kiradi.

Tayyorlanadigan kiyimga qo'yiladigan talablardan biri havoni yaxshi o'tkazishi, uzoq chidashi va chiroyli qilib bezalishidir. Bular eng avvalo gazlamaning xossasiga, kiyimning tanlangan fasoniga va tikish usuliga bog'liqdir.

**Yubkalar** . Yubkalar fasoni bo'yicha har xil: vitochkali, to'g'ri, qiyikli, vitochkasiz ikki chokli, klyoshli, skladkali yubka va xokazolar. Qanday maqsadda kiyilishiga qarab ularni kostyum bilan kiyiladigan va kostyumsiz, faqat o'zi kiyiladigan yubkalarga ajratish mumkin. Kostyum bilan kiyiladigan va nimcha bilan bir xil materialdan tikilgan yubkaning bichilishi nimchaning bichilishiga mos tushishi lozim. Faqat o'zini kiyiladigan yubkaning fasoni va bichilishi jussaning xususiyatlariga, shuningdek, gazlamaning tukilishi va guliga qarab tanlanadi. Keng klyoshli yubkalar yengil gazlamadan tikilib, tug'ri fasonli yubkaning etagi kengaytiriladi.

Ular zich tukilgan va qalinroq gazlamadan tikiladi. Yengil yoki zich tukilgan jun gazlama, kremlin, sidirg'a, shuningdek, zich tukilgan ipak gazlamadan tikilgan yubkalarni, bluzka, kostyum, jaket va shu kabilar bilan kiyish mumkin.

To'g'ri yubka kengroq turadi, bir chokli, ikki chokli, uch chokli, skladkali, burmali bo'ladi (1-rasm). Yubkaning beli belbogli, rezinkali yoki tasmali bo'lishi mumkin. To'g'ri yubka gazlamaning bo'ylama yo'nalishi bo'yicha bichiladi.



**1-rasm**



Klinli yubka kiyikli bir kancha klinlardan tashkil topadi (2-rasm). Bunda buylama ip xar bir klinning markazidan utadi. Buylama ip kurinib turishi uchun klinning andazadagi markaziy chizigi ustiga yukori va pastdan teshikcha kilib kirkib kuyiladi.



2-rasm

Klyosh va konussimon yubkalar yarim klyosh, to`liq klyosh, konussimon bo`ladi. Bunday yubkalar aylana, yarim aylana, 1/3 aylana, 1/4 aylana shaklida bichiladi. Bo`ylama ip old bo`lagining o`rta chizig`iga to`g`ri keladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Yengil kiyimning turlarini ayting.
2. Kamarli kiyimlarga nimalar kiradi?
3. Yubkalar tuzilishi bo`yicha necha xil bo`ladi?
4. Yubkalarning tuzilishi nima bilan farqlanadi?
5. Har xil bichilgan yubkalarda bo`ylama ip qanday joylashadi?

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 31-32 dars.

**Mavzu :** Yubka chizmasini chizish

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga yubka chizmasini chizish haqida umumiy ma'lumot berish

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarni yubka chizmasini chizish ishlarning bilan tanishtirib borish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda tikuvchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, musobaqa dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Yubka chizmasini chizish                              |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Yubka chizmasini chizish

Boshqa kiyimlar kabi yubkaning ham uzunligi va razmeri gavdaga mos kelishi shart (1-rasm). Shuning uchun gavdani to'g'ri qo'yib quyidagi o'lchovlar olinadi va jadvalga (1-jadval) yoziladi

| № | O'lchovning nomi      | O'lchovning belgisi | O'lchovni aniqlash        | O'lchov olish                                   |
|---|-----------------------|---------------------|---------------------------|-------------------------------------------------|
| 1 | Kiyimning uzunligi    | KU                  | Kiyimning uzunligi        | Beldan etakkacha                                |
| 2 | Bel aylanasi yarmi    | Bel.Ayar            | Belbog` uzunligi bo`yicha | Belni aylantirib o`lchash                       |
| 3 | Bo`ksa aylanasi yarmi | BkAyar              | Yubka kengligini          | Bo`ksani qorin usti bilan aylantirib o`lchanadi |


### To`g`ri yubkaning chizmasini chizish (42-razmer)

**Asbob va moslamalar:** masshtabli chizg`ich, burchakli chizg`ich, sm lenta, lekalo, TM va 2M qalam, albom, o`chirgich, rangli qalamlar. Yubkaning o`lchovlari 2-jadvalda berilgan.

| №                                     | Nomlari                          | Harfli belgisi | Uzunligi, sm |
|---------------------------------------|----------------------------------|----------------|--------------|
| 1                                     | Bel yarim aylanasi               | BelAyarmi      | 32           |
| 2                                     | Bo`ksa yarim aylanasi            | BkA yarmi      | 42           |
| 3                                     | Orqa belgacha uzunligi           | OBU            | 36           |
| 4                                     | Kiyimning uzunligi               | KU             | 45           |
| <b>Qo`shimchalar (to`kislik haqi)</b> |                                  |                |              |
| 1                                     | Bel yarim aylanasi qo`shimcha    | (Pt)           | 1            |
| 2                                     | Bo`ksa yarim aylanasi qo`shimcha | Qbk            | 1+3          |

### Andozalar chizishda kerakli jihoz va o'lchamlar.

**Asbob va moslamalar:** chizg`ich, qalam, daftar, o`chirgich, 60 X 50 sm.li qog`oz




1-rasm

Andazaning kesmalarini hisoblash formulalari 3-jadvalda, chizmalari 2- rasmda berilgan.

3- j a d v a l

| Nº | Chizmadagi kesmalar                                          | Hisoblash formulasi                  | Doimiy o`lchov | Mening o`lchovim |
|----|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------|----------------|------------------|
| 1  | TN                                                           | KU                                   | 50 (45)        |                  |
| 2  | TB                                                           | Doimiy o`lchov 16 sm dan 20 sm gacha | 16             | 16               |
| 3  | TT <sub>1</sub> -BB <sub>1</sub> -HH <sub>1</sub>            | Bk Ayar+2 sm-42+2 sm                 | 44             |                  |
| 4  | BB <sub>2</sub> -TO-NN <sub>2</sub>                          | BB <sub>1</sub> :2-44:2              | 22             |                  |
| 5  | T <sub>1</sub> T <sub>2</sub>                                | Bel Ayar : 2+4-32:2+4                | 20             |                  |
| 6  | T T <sub>3</sub>                                             | Bel Ayar : 2+3-32:2+3                | 19             |                  |
| 7  | B <sub>1</sub> B <sub>3</sub>                                | Bk Ayar : 4—1-42:4—1                 | 9,5            |                  |
| 8  | BB <sub>4</sub>                                              | Bk Ayar : 4—2-42:4—2                 | 8,5            |                  |
| 9  | B <sub>3</sub> 5                                             | Doimiy ulchov                        | 5              | 5                |
| 10 | B <sub>4</sub> 4                                             | Doimiy ulchov                        | 4              | 4                |
| 11 | T <sub>2</sub> T <sub>3</sub> -T <sub>3</sub> T <sub>4</sub> | Doimiy ulchov                        | 1              | 1                |
| 12 | N <sub>2</sub> N <sub>3</sub> -N <sub>2</sub> N <sub>4</sub> | Doimiy ulchov                        | 3              | 3                |

Avval yotiq va tik chiziqlar chiziladi. Ular kesishgan nuqtani T harfi bilan belgilanadi. T nuqtadan tik chiziq bo`ylab KU=45 sm o`lchab qo`yiladi. TN chiziq yubka ort bo`lagining o`rta chizig`i deyiladi.



2-rasm

Bo`ksa chizig`i. T nuqtadan pastga hamma razmerlar uchun 16—18 sm uzunlikda chiziq chiziladi va B nuqta bilan belgilanadi. B nuqtadan o`ngga Bk Ayar - 2 sm (2 sm



bo`lsa chizig`idagi to`kislik qo`shimcha haqi) o`lchab B nuqta qo`yiladi. Yubkani old va ort bo`lakka ajratish uchun  $BB_1$  kesmani ikkiga bo`lamiz  $BB_2 = BB_1 : 2 = (Bk \text{ Ayar} + 2) : 2 = (42 + 2) : 2 = 22 \text{ sm}$ .  $B_2$  nuqtadan yuqori va pastga qarab tik chiziq chiziladi.

Beldagi yubkaning kengligi. Old bo`lagini chizishda  $T_1 T_2$  Bel Ayar:  $2+4=32$ :  $2+4 \text{ sm}=20 \text{ sm}$ . (4 sm vitochka chuqurligi uchun qo`shilgan haqi).

Ort bo`lagini chizishda  $TT_3=\text{Bel Ayar} : 2+3 \text{ sm}=32 : 2+3 \text{ sm}=19 \text{ sm}$  (3 sm ort bo`lagidagi vitochka chuqurligi uchun qo`shilgan haqi).  $H_2H_3=H_2H_4$  yubkaning etagi 3 sm kengaytiriladi.  $T_2 B_2 N_4$  va  $T_3 B_2 N_4$  nuqtalar tutashtirilib yubkaning yon qirqimlari hosil qilinadi.

Beldagi vitochka chuqurligi quyidagicha aniqlanadi va taqsimlanadi:

$(KAyar+2) - (\text{Bel Ayar}+2) = (42+2)-(32+2) = 44-34=10 \text{ sm}$ , chiqan ayirma 10 sm ni 4 sm old bo`lagiga, 3 sm ort bo`lagiga va qolgan 3 sm ni yon tomoniga taqsimlanadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 33-34 dars.****Mavzu :** Yubka eskizlarini chizish va modellashtirish**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga yubka eskizlarini chizish va modellashtirish haqida umumiy ma'lumot berish**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O'quvchilarni yubka turlari bilan tanishtirib borish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda tikuvchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning mafkuraviy maqsadi:** O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash.**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar.

2 Chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vaqt      | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzab muammolar haqida suhbat                        |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Yubkani modellashtirishni o'rganish                   |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Yubka eskizlarini chizish va modellashtirish.

Moda yaratish kiyimning asosiy andazasining chizmasiga yangi chiziqlar kiritish bilan bajariladi. Tanlangan fason bo'yicha asosiy chizmadagi biror chiziqning o'zgartirilishi yoki qo'shilishi va ba'zi shakllarning boshqacha qilinishi **modellashtirish** deyiladi.


To'g'ri yubkaning asosiy andozasi asosida quyidagicha yubkalarni tikish mumkin:

1. Etak qismi har-xil kenglikdagi yubkalarni;
2. Skladkali, ya'ni old bo'lagi va ort bo'lagiga skladka solingan yubkalarni;
3. Turli bezaklar- cho'ntak, koket, belbog' qo'shilgan yubkalarni.

Mana shu ishlarni bajarishda etakni beldagi vitochka ni yopish hisobiga kengaytirish mumkin. **Masalan;**

1. Bel vitochkasini yopish hisobiga etak qismini kengaytirish
2. Turli skladkalar hisobiga modelni o'zgartirish. Bunda bir tomonga qaratilgan va bir-biriga qarama qarshi, aylana va boshqacha skladkalardan foydalaniladi.
3. Agar yubka koketkali bo'lsa, uni asosiy chizmadan modellash yo'li bilan tayyorlanadi. Modelirovkada yubkaning eskizi chiziladi, unda yubkaning old va ort bo'laklari ko'rsatiladi. Fasoni va tanlangan gazlamaning hossasi yoziladi.
4. Klinli yubkalarni ham etak qismini kengaytirish yo'li bilan modellashtirish mumkin. Etak qismini kengaytirishda belga qo'shilmaydi, bo'ksa chizig'i esa 1,5-2 sm qo'shib, etak chizig'i bilan to'g'ri chiziqda birlashtiriladi. Natijada etak ancha kengayadi.
5. Klinli yubkani skladka solish yo'li bilan kengaytirish mumkin. Bunda har bir klinning belidan bir xil kenglikda skladka uchun (uning chuqurligini hisobga olib) qo'shiladi. Skladka klinlarni bir-biriga tikish joyida hosil bo'ladi.

**Yupka turlari:** Konussimon, to'g'ri, shakldor.



1. Koketka va bezak chokli



2. Koketka va taxlamali



3. Koketkali qo'ng'iroq



4. 6 qiviqli konussimon



5. Koketkali to'g'ri mini yubka



6. «Lola» mini yubkasi

O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 35-36 dars.****Mavzu :** Yubka chizmasini tekshirish. Andoza va gazlamani tayyorlash.**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga yubka andozasi va gazlamasini tayyorlashni o`rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarida qo`yiladigan talablarni o`rganish bilan birga nafasat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzard muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Yubka chizmasini tekshirish. Andoza va gazlamani tayyorlash.

Yubka asosan turli gazlamalardan tikiladi. Gazlama tanlash yubkaning qachon kiyilishiga bog`liq. Chunki uyda kiyiladigan, ko`chada kiyiladigan, ezda, kishda kiyiladigan fasoni to`g`ri, ikki chokli, klinli, klyosh yubkalar bor.

To`g`ri yubkani tikish uchun ko`proq zich tukilgan jun, sidirg`a, yo`l-yo`l va yirik katakli gazlamalar tanlanadi. Etagi kengroq yubkalar yengilroq gazlamalardan: chit, shtapel, junlardan tikiladi.

Yubka fasoni gazlamaning eniga ham bog`liq: agar gazlama enli -1 m 40 sm bo`lsa, har qanday fasonni tanlash mumkin.

Yubka tikish ishini bajarish tartibi:

1. Gazlamani bichishga tayyorlash va bichish.
2. Bichiqning qismlarini tikishga tayyorlash.
3. Yubkani birinchi ulchovga tayyorlash.
4. Birinchi ulchovni o`tkazib, undagi kamchiliklarni tuzatish.
5. Yubkaning tugmalanadigan qismiga ishlov berish.
6. Yubkaning belbog`i — kamarini tayyorlash.
7. Yubkaning bel qismiga ishlov berish.
8. Yubkaning etak qismiga ishlov berish.
9. Yubkani pardozlash va dazmollash.

### **S a v o l l a r:**


1. Yubka uchun gazlama tanlash nimalarga bog`liq?
2. To`g`ri va klyosh yubkalar uchun qanday gazlama tanlanadi?
3. Gulli gazlamalardan qanday yubkalar tikiladi?

Amaliy ishni bajarishda — tikuv mashinasida tikish, bichish va dazmollash xavfsizlik texnologiyasi qoidalariga rioya qilish kerak.

1. Gazlamani bichishga tayyorlash va bichish.

Gazlamaning o`ngi va teskarisini, bo`ylama va ko`ndalang iplarini aniqlash. Gazlamaning nuqsonlarini belgilab qo`yish.

Gazlama yirik katak va yo`l-yo`l gulli bo`lsa, unga andazani qo`yganda yo`llari va kataklari bir-biriga mos tushishi shart. Agar gazlama yo`lli bo`lsa, andazani bo`ylamasiga yoki ko`ndalangiga moslab qo`yiladi. Archa qilib bichishda hamma chekkalari ustma-ust qo`yiladi. Bunday gazlamalarni yana burchak ostida qiya qilib ham joylashtirish mumkin. Choklarni bir-biriga tikilganda chiziqlari va kataklari bir-biriga mos kelishi shart. (1-rasm).



O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 37-38 dars.****Mavzu :** Gazlama ustiga andozani joylashtirish. Yubkani bichish va tikish**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga yubka ustida andozani joylashtirish, bichish va tikishni o`rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarida yubkani bichish va tikishda qo`yiladigan talablarni o`rganish bilan birga nafasat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Yubkani bichish                                       |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.


**Yangi dars bayoni:** Gazlama ustiga andozani joylashtirish. Yubkani bichish va tikish

Bichish ikki xil bajariladi: alohida shaxslar uchun bittadan va bichish sexlarida omma uchun bir qancha qavat gazlamani bitta qo`yib bichiladi. Unda 50—60 qavat gazlamaning ustiga bitta andaza qo`yib kesiladi.


Gazlamaning gullari bir tomonga yo`nalgan bo`lsa, andazani hamma qismlarini bir tomonga qaratib joylashtiriladi. Belbog` qismi esa, bo`y ip yo`nalishiga ko`ndalang joylashtiriladi. Bir xil parallel qismlari ham bir tomonga yo`naltirib joylashtiriladi.

**Ishni bajarish tartibi:**

2. Gazlamani o`ngini o`ngiga qaratib andazani rasmda ko`rsatilganidek joylashtiriladi. (1-rasm )




4. Andazaning atrofini chizib chiqiladi, andazada ko'rsatilgan chok haqlarini qoldirib, yana qaytadan chizib chiqiladi (2-rasm).






5. Yubkaning qismlarini chok haqi qoldirilgan chiziq bo'yicha bichiladi (3-rasm).



Bichiqning qismlarini tikishga tayyorlashda yubkaning beldan bo'ksagacha bo'lgan qismini gavdaga moslashtirish uchun vitochka, skladka olinadi. Buni bir tomondan ikkinchi tomonga salqi qaviq solib ko'chiriladi, o'rtasiga ko'klash qaviq qatori solinadi.

3. Yubkaning bo'ksa chizig'i ustiga ham belgilash uchun ko'klab **qaviq** qator tikiladi (4- rasm, *a* — to'g'ri yubka; *b* — klyosh yubka; *v* — klinli yubka; *g* — belbog'i).



O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### Dars yakuni.

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.



**6-sinf. № 39-40 dars.****Mavzu :** Birinchi kiydirib ko'rish. Kiydirib ko'rishdan so'ng kamchiliklarni tuzatish**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga birinchi kiydirib ko'rish va uni kamchiliklarini tuzatishga o'rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarida yubkani o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash omixta dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Yubkadagi nuqsonlarni bartaraf qilish                 |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Birinchi kiydirib ko'rish. Kiydirib ko'rishdan so'ng kamchiliklarni tuzatish**Yubkani birinchi kiyib ko'rish (primerka)ga tayyorlash**

**Asbob va moslamalar:** ish kugichasi, yubkaning bichigi.

Kiyim loyiq va sifatli chikishi uchun mashina choki bilan tikishdan avval birinchi kiyib ko`rish qilinadi, uning kamchiliklarini tuzatib keyin mashina chokida tikiladi. Uni birinchi kiyib ko`rishga tayyorlashda vitochkasi, skladkasi, yon choklari ko`klash qavig`i bilan tikiladi. Etak va bel qismi ochiq buklov chokida ko`klab chiqiladi, chok uzunligi 0,5—0,7 sm bo`ladi.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Teskari tomondan to`g`nog`ich qadab belgilangan joydan ko`klab qaviq solinadi, chokning oxiri mustahkamlanadi.

2. Yubkaning qismlari birlashtiriladi.


3. Yubkaning tomonlarini birlashtirib, to`g`nogich qadaladi va beldan pastga qarab, buksa chizig`ini bir-biriga tushirib sirma qaviq solinadi.

Chap tomonini esa beldan pastga 14—16 sm (zastyojka) tugmalash uchun qoldirib o`sha joydan pastga qarab sirma qaviq solinadi (1- rasm).

Etak va bel qismini belgilangan joydan buklab, ochiq buklov chokida ko`klab chiqiladi (2-rasm).



1-rasm



2-rasm

O`z-o`zini tekshirish:


1. Choklarning uzunligi va sifatini aniqlash.
2. Vitochka va skladkalar qanday tikilganini ko`rish.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Qaysi chiziqdarni va nima uchun gazlamaga ko`chirish kerak?
2. Bo`ksa chizigi bichiqda qanday belgilanishini ko`rsating.
3. Kontrol chiziqlar nima uchun chiziladi?
4. Nima uchun vitochka mashinada pastdan yuoriga qarab tikilishini ayting?
5. Skladka va yon qirqimlari qanday ishlanadi?


Birinchi kiyib ko`rishni o`tkazishda ko`rilgan kamchiliklar tuzatiladi. Bunda belga kengroq tasmani taqib, yubkani kiydiriladi, old o`rtasini, orqa o`rtasini to`grilab to`g`nogich bilan to`g`nab qo`yiladi. Tekshirish o`ng tomondan boshlanadi, to`g`ri kelmagan joyini bo`r bilan belgilanadi. Agar kamchilik ko`p bo`lsa, ikkinchi kiyib ko`rish o`tkaziladi. Tekshirishda aniqlangan kamchiliklar to`g`rilanadi.

Vitochkalarining turishi, skladkalarining tushishi, etak qismning bir xil kenglikda qayirilishi, yon choklari va boshqalar ko`rib chiqiladi. Masalan, vitochka noto`g`ri tikilgan bo`lsa, yana uning o`rnini belgilab qaytadan tikiladi (3- rasm).



### Birinchi kiyib ko`rishni o`tkazish

**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, tikilgan yubka, nina, ngishvona, 1 metrli chizg`ich, tasma, sm li lenta, qaychi, sovun yoki bo`r.



4- rasm

1. Belga tasma qo`yib turnab qo`yiladi.
2. Yubkani kiydirib gavdaga moslab tasmaga to`g`nogich bilan turnab qo`yiladi ( 4- rasm).
3. Agar yubka keng bo`lsa, yon chokidan klinlar chetidan ko`proq chokka olinadi, agar torroq bo`lsa, chokidan kengaytiriladi.
4. Chokining oldiga yoki orqaga o`tganini ko`rib joyiga keltiriladi (1).
5. Agar vitochka noto`g`ri tursa, to`g`ri joyini belgilanadi (2).
6. Skladkaning bostirib tikiladigan o`rni belgilanadi (3).
7. Yubkaning uzunligini poldan chizg`ich qo`yib aniqlanadi (4).
8. Etakning hamma tomonini bo`r yoki to`g`nog`ich bilan belgilab chiqiladi (4).

**Savol va topshiriqlar:**


1. Tekshirishda nimalarga e`tibor berilishini ayting?
2. Vitochka va yon choklar qanday to`g`rilanadi?
3. Qaysi vaqtda ikkinchi marta tekshiriladi?
4. Tuzatib bo`lmaydigan xatolar ham uchraydimi?

### **Birinchi kiyib ko`rishdan keyin ishlov berish**

**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, yubka, igna, ip, angishvona, qaychi, bo`r.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Vitochkani tikiladi, chokning oxirini mustahkamlanadi, vitochka tomonlari-ni markaziy chiziqqa qaratib bostirib dazmollanadi.
2. Skladkani yuqoridan belgilangan joyigacha tikiladi, chokning oxiri mustahkamlanadi va dazmollanadi.
3. Yon choki yuqoridan pastga qarab tikiladi, chap tomondan 14—16 sm qoldiriladi. Chokni yorib dazmollanadi (5-rasm).



**5-rasm**

O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

#### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 41-42 dars.****Mavzu :** «Molniya» taqilmasini tikish. **5-nazorat ishi****Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga «Molniya» taqilmasini tikishni o`rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Molniya taqilmasini tikish                            |


**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** «Molniya» taqilmasini tikish. Yubkaning tugmalanadigan qismiga molniya qo`yish.**Molniya taqilmasini tikish**

Yoqasiz buyumlarning yoqa o`miziga mag`iz qo`yib tikilganda molniya — taqilma tasmasining yuqori uchi taqilma ishlov haqining bukilgan chetiga bahyaqator yoqa

o`mizining qirqimidan 0,5 sm oraliqda o`tdigan qilib ulanadi (2- rasm). Yoqa o`mizi mag`izining ichki qirqimlariga ishlov berilgan bo`lishi kerak. Mag`iz uchlari taqilmaning ishlov haqi qirqimiga ulanadi. Mag`izni teskari tomonga qaytarib taqilma burchaklari va choklarini to`g`rilab, asosiy detaldan 0,1 —0, 2 sm kenglikda zih chiqarib dazmollanadi.



**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, yubka, 14—16 smli molniya, uni tikish uchun maxsus tepki.

### Ishning tartibi:



1. Tepa qismining chap tomonidan molniya uchun qoldirilgan joyni teskari tomonidan ko`klab tikiladi va dazmollanadi. «Molniya»ni ochib, o`ng tomoni bilan yubkaning teskari tomoniga qo`yiladi, to`g`nog`ichni qadab, gazlama qismidan tikib chiqiladi. Molniyani yopib, ikkinchi tomoni ham tikiladi.

2. O`ng tomonining chetidan 0,1 va 0,2 sm qoldirib mashinada baxyaqator bostirib tikiladi. 14—15 sm li molniyada gorizonta tikib chok mustahkamlanadi. Molniyaning chetini yubkaning ochiq qoldirilgan joyiga qo`l chokida yo`rmab tikiladi (1-rasm).

### Molniya taqilmasini tikish

«Molniya» tasmani asosiy bo`lakka ko`rinmaydigan qilib ulash mumkin. Taqilma molniyasining tishlari ich kiyimni ilmasligi uchun kiyim teskarisiga ehtiyot ko`rimi ulanadi. Ehtiyot ko`rimi asosiy materialdan bichiladi. Uni eni 8-9 sm, uzunligi taqilma uzunligiga teng bo`ladi. Ko`rinmaning o`ngini ichkariga qaratib uzunasiga ikki bukiladi va yuqori tomoni ag`darma chok bilan tikiladi. Keyin o`ngiga ag`dariladi va 2 ta ochiq qirqimli tomoni maxsus mashinada yo`rmalanadi. Tayyor ehtiyot ko`rinma dazmollanadi. «Molniya» tasmani asosiy bo`lak teskarisiga qo`yib, asosiy bo`lak o`ngidan bostirib tikiladi.





### 1-rasm. Taqilmalarning chizmali ko'rinishi:

1. ko'zli izma; 2. ag'darma chokli izma; 3. molniya taqilmasi.

Keyin asosiy bo'lakni qaytarib turib ort bo'lak chok haqqiga ehtiyot ko'rinmani uning qirqimlarini old bo'lak tomonga qaratib qo'yib, chok haqqiga biriktirib tikiladi. Taqilma pastki uchi old bo'lak teskarisidan 2 ta qaytma bahyaqator yuritib puxtalanadi.

Yubka yoki boshqa kiyim turida molniya tasmani biriktirma chok bilan tikishda, kiyim choklari biriktirib tikilgandan va yorib dazmollangandan keyin tasma chetidan 4-7 sm masofada bahyaqator yuritiladi. Molniya tasmaining yuqorigi qirqimlari kiyim yuqori chetidan 0,5 sm narida tikiladi. Taqilma oxirida molniya oxirgi tishlaridan 5 mm masofada kesimga perpendikulyar qilib bahyaqator yurgaziladi.

O'z-o'zini tekshirish:

1. Molniyaning chetidagi chokning kengligi bir xil bo'lishi lozim.

2. Molniyani tikilganda uning ustidan tishli qismi ko'rinmasligi kerak.

O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 43-44 dars.****Mavzu :** Yubkaning bel va etak qismlariga ishlov berish**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga yubkaning bel va etak qismlariga ishlov berishni o`rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Yubka etak va bbel qismiga ishlov berish              |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Yubkaning bel va etak qismlariga ishlov berish

Yubkaning belbog`iga, yubkaning yuqori qismiga, etak qismiga va oxirgi ishlov berish texnologik tartibi bilan tanishib chiqiladi.



Yubkaning yuqori qirqimiga qaytarma belbog', ulama belbog', karsaj lenta, mag'iz va rezina tasmalar bilan ishlov berish mumkin.

Yubkaning cheti ulama belbog'li bo'lsa, avval belbog'ga ishlov beriladi, gazlama turiga qarab, belbog'ga qotirma yaxlit yoki o'rtasidan joylashtirib yopishtiriladi. Belbog' uchlari ag'darma chok bilan tikiladi, ortiqcha chok haqlari qirqib tashlanadi. Belbog' o'ngiga ag'darilib sirma qaviq bilan ko'klanadi va dazmollanadi. Tayyor bo'lgan belbog'ni yubkaning yuqori qirqimiga ulashning bir necha usullari bo'lib, ularni siz nazariy fanlardan tanishib chiqqansiz.


Ushbu modulda esa Sizlarga yubka belbog'ining pastki qirqimi bukib tikilgan belbog'ni tikishning texnologik ketma-ketligini tavsiya etamiz.

Yubka etagi modeliga, gazlama turiga, uning xususiyatiga qarab turlicha usulda:

1. Ochiq qirqimli bukma chok bilan.
2. Yopiq qirqimli bukma chok bilan.
3. Mag'iz qo'yish bilan.
4. Tasma qo'yish bilan ishlov berish mumkin.

Ushbu modulda yubkaning etak qismini ochiq qirqimli bukma chok bilan tikish texnologik ketma-ketligini ko'rsatamiz.

Yubkani ort va old bo'laklarini o'rta chiziqlari bo'ylab teskarisini ichkariga qaratib qo'yiladi. Yon choklari vitochkalarini, bir-biriga to'g'ri keltirib, o'ng tomonini yuqoriga qaratib yuqori qirqimini o'ng tomonga qaratib stol ustiga yozib qo'yiladi, yordamchi andoza qo'yib, yubka etagini bukish chizig'i belgilanadi, yubka etagi notekis joylari qirqib tashlanadi.



**1-rasm. Klassik yubkaning umumiy ko'rinishi**

1-belbog'ga ishlov berish; 2-belbog'ni yubkaga biriktirish; 3-etak qisimga ishlov berish;

4-tugma va temir ilgaklarni chatish.

Yubkaning etagiga ishlov berayotganda, yubka ort bo'lak o'rta chokida joylashgan shlitsani pastki qirqimiga ishlov berishga katta e'tibor berish kerak.

So'ng yubkaga uzil-kesil ishlov beriladi: izmalar maxsus mashinalarda ochiladi, yubka tozalanadi, yubkaning teskari tomonidan va o'ngiga ag'dariladi, tugmalar tikilib, ilgakkacha osib qo'yiladi.

**Asbob va moslamalar:** ish qutichasi, belbog`ning bichigi.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Agar belbog` bo`ylamasiga ikki klindan iborat bo`lsa, choki 1 sm qoldirib tikiladi va uni yorib dazmollanadi.

2. O`ngini ichiga olib buklov chizig`idan ikkiga buklanadi, to`g`nog`ich turnab, tikiladi.

O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 45-46 dars.****Mavzu :** Yubkani bezash va oxirgi ishlov berish**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga yubkani bezash va oxirgi ishlov berishni o'rgatish.**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Yubkani bezash va oxirgi ishlov berish                |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.


Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Yubkani bezash va oxirgi ishlov berish

Yubkalar silueti bo'yicha to'g'ri, etakka qarab kengaygan va toraygan bo'ladi. Har bir siluet bir necha variantlardan iborat bo'lishi mumkin. Yubka konstruksiyasini

chizishda avval siluet tanlanadi, so'ng shaxsiy figura to'laligi hisobga olinib zamonaviy moda yo'nalishiga mos model aniqlanadi.

To'g'ri yubka va uning variantlari ixcham bo'ksali ayollar figurasini kelishgan qilib ko'rsatadi. Uning etak qismi bo'ksa qismiga nisbatan 5-8 sm ga kengroqdir. Etagi kengaytirilgan yubka beli xipcham (ingichka belli) va bo'ksador ayollarga yarashadi. Yubkani kengaytirish bel vitochkalarini etak chizig'iga o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.



**1-rasm. Yubka variantlari:**

a, b – to'g'ri siluetli yubka; c-etagi kengaytirilgan yubka; d-etagi toraygan yubka; e-gode yubka

Etak qismi toraytirilgan yubka («hurmacha» shaklidagi) bashang kiyimlarda ko'proq uchraydi. Bunday yubkalar qattiqroq gazlamadan tikiladi. Ba'zi hollarda bel vitochkalar o'rniga mayda burmalar loyihalanadi.


Yubka barcha silueta va ularning variantlari to'g'ri siluetli yubka gazlamasi asosida konstruktiv modellash yo'li bilan yaratiladi. Yubkani modellashda uning bo'laklarining o'zaro mutanosibligiga (proportsional ichiga) e'tibor berish kerak.

Yubkani modellashda tikish uchun tanlangan gazlama xossalarini va figuraning to'laligini ham hisobga olish zarur.

Yupqa va mayin gazlamalardan etagi kengaytirilgan yubkalar, cho'ziluvchan gazlamadan torroq yubka tikish ma'qulroqdir. «Klesh», «gode» bichimli yubkalarni kengaytirish darajasi (kattaligi) qomat tuzilishiga qarab aniqlanadi.

To'g'ri yubkaga silueti to'g'ri to'rtburchak shaklini beruvchi barcha yubkalar kiradi. Ular tor va kengaytirilgan, bir va bir necha chokli, shlotsali, taxlamali va burmali bo'lishi mumkin.


Yubka vitochkalarining o'rnini, soni va kattaligini aniqlash har bir figuraning xususiyatlariga bog'liq. To'g'ri yubkada ort bo'lakda 2 ta, old bo'lakda 2 ta vitochka loyihalanadi. Agar vitochka kattaligi 4 sm dan oshsa, u ikkiga bo'linadi, ya'ni 2 ta vitochka o'rniga 4 ta loyihalanadi. Klassik to'g'ri yubka ort bo'lagi o'rta chokli yoki yaxlit bo'ladi. Taqilma chap yon chokda yoki ort o'rta chokda tikiladi. To'g'ri yubka belbog'li va belbog'siz qilib tikilishi mumkin. (2-rasm).



**2-rasm. To'g'ri yubkaning tashqi ko'rinishi.**

Klassik to'g'ri yubkaning chiziqlar bilan bo'linishi 3-




rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm. To'g'ri yubkaning konstruktiv chiziqlari va asosiy bo'laklari.


**Yubkani bezash va oxirgi ishlov berish quyidagi tarzda bajariladi.**

1. Yubka etagini yo'rmalash.
2. Yubka etagini bukib ko'klash.
3. Yubka etagini dazmollash.
4. Yubka etagini bukib tikish.
5. Ko'klangan iplarni so'kish.
6. Izmani yo'rmalash.
7. Yubkani tozalash
8. Yubkaga namlab-isitib ishlov berish (teskari tomondan bajariladi).
9. . Yubka etagiga namlab-isitib ishlov berish.
10. Yubka o'ng tomonidan namlab-isitib ishlov berish.
11. Yubka o'ng tomonidan namlab-isitib ishlov berish.
12. Yubkani quritish.
13. Tugma va temir ilgaklarni chatish.



1. Yubka etagini maxsus mashinada yo'rmalanadi.

2. Belgi chiziq bo'ylab yubka etagining qirqimi teskari tomonga bukiladi va yirikligi 15-20 mm to'g'ri sirma qaviq bilan bukib ko'klanadi.
3. Yubkani ko'klangan iplardan tozalanadi.
4. Yubkaning etagiga namlangan dazmol mato qo'yib dazmollanadi.
5. Izmalar o'rni belgilangandan so'ng maxsus mashinada asosiy gazlama rangiga mos ip bilan yo'rmlanadi.
6. Yubkadagi iplarni qoldiqlarini, iplarini, bukib ko'klangan iplarni va h.k.lar qirqib tashlanadi, bo'r yoki sovun izlari cho'tka yoki yubka gazlamasidan olingan gazlama parchasi bilan tozalanadi.
7. Yubka belbog'idan boshlab dazmollanadi, belbog'ni teskarisiga dazmol mato qo'ymay dazmollanadi.
8. Yubka etagini ishchiga qaratib qo'yiladi va navbati bilan joyidan surib dazmollanadi. Yubka bukish haqi izlari o'ngi tomonga botib chiqmasligi uchun, bitta dazmol matoni taxlab bukish haqiga tutashtirib qo'yiladi, ikkinchi dazmol matoni namlab etak dazmollanadi.
9. Yubka o'ngi tomonidagi hosil bo'lgan yiltiroq joylarni namlangan dazmol-mato qo'yib dazmollab yo'qotiladi.
10. Yubka yaxshi qurishi uchun, uni ilib osib qo'yiladi.
11. Ikki teshikli tugmalarni 30-40 raqamli oddiy ip bilan, 5-6 ta qaviq bilan chatiladi. Temir ilgaklar 40-raqamli oddiy ipda 4-5 ta qaviq bilan chatiladi.




O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### 1. Qanday belbog' turlarini bilasiz?

- A) ulama, yaxlit, korsaj, tasmali;
- B) mag'izli, tahlamali, ulamali;
- C) qaytarmali, tahlamali, korsajli;
- D) bezakni, mag'izli, yaxlit.

### 2. Rasmda qanday belbog'ni, yubka bilan ulanganini keltirilgan?



- A) korsajli;
- B) ulama yaxlit;
- C) tahlamali;
- D) bezakli.


### 3. Yubka etagiga ishlov berish usullari to'g'ri yozilgan ustunni ko'rsating?

- A) ochiq, yopiq qirqimli bukma chok bilan, mag'iz, tasma;  
 B) mag'iz, tasma, yopiq qirqimli, gul yopishtirib;  
 C) ochiq va yopiq qirqimli bukma chok, yo'rmalash;  
 D) to'g'ri javob yo'q.

**4. Qalin gazlamalardan tikiladigan yubkalarning belbog'i qanday biriktiriladi?**

- A) ochiq qirqimli; B) mag'iz qo'yib; C) qirqimini bukib; D) to'g'ri javob yo'q.

**5. Rasmda qanday belbog' keltirilgan?**



- A) ulama;  
 B) korsaj;  
 C) mag'iz;  
 D) to'g'ri javob yo'q.


**6. Ulama belbog'ni tikishda chok haqqi necha sm bo'ladi?**

- A) 1,5 - 2,0; B) 0,2 - 0,4; C) 0,5 - 0,7; D) 2,0 - 2,5.

**7. Nima uchun belbog'ga qotirma yopishtiriladi?**

- A) sifatli va cho'zilib ketmasligi uchun; B) uzilib ketmasligi uchun;  
 C) rangi o'zgarmasligi uchun; D) kirishib qolmasligi uchun.

**8. Rasmda qanday etak bukish ko'rsatilgan?**



- A) biriktirma chok;  
 B) ochiq bukma chok;  
 C) ochiq bukma qaviq;  
 D) berk bukma chok.

**9. Namlab isitib ishlov berilgandan so'ng yubka qanday quritiladi?**

- A) bug' manikenga qo'yib;  
 B) ventilyatsiya yordamida;  
 C) visholkaga osib qo'yib;  
 D) dazmol yordamida dazmollanadi.

**10. Izma qanday ip bilan yo'rmalanadi?**

- A) paxta; B) ipak; C) lezka; D) hamma javoblar to'g'ri.

**TEST JAVOBLARI (kalit)**

|    |    |    |    |    |    |    |    |    |     |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|-----|
| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. | 6. | 7. | 8. | 9. | 10. |
| A  | A  | A  | A  | A  | C  | A  | C  | C  | B   |

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 47 – 48 dars.**

**Mavzu :** Zardo`zlik san`ati tarixi va uning rivojlanishi. Zardo`zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob uskunalar, zar iplarni o`rash.

**Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarni zardo`zlik san`ati bilan uning rivojlanishi, zardo`zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob uskunalar bilan tanishtirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarda nafosat tuyg`usini shakllantirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarning milliy xalq hunarmandchiligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Darsning mafkuraviy maqsadi:**

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:**

**Dars jihozi:** Ish daftari, zardo`zlikka oid ko`rgazmalar va mavzuga testlar, ish qurollari, zardo`zlik, zardo`zlik ishlaridan namunalar.

**Darsning turi:** nazariy.

**Darsning uslubi:** kirish, suhbat.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Zar ipni o`rash<br>6- nazorat ishi                    |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

1. Beldan kiyiladigan kiyimlarga nimalar kiradi? Ularni sanab bering.
2. Yubka tikish uchun nimalarga e`tibor beriladi?
3. Yubkaga oxirgi ishlov berish qanday amalga oshiriladi?



**Yangi dars bayoni:** Zardo`zlik san`ati tarixi va uning rivojlanishi. Zardo`zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob uskunalar, zar iplarni o`rash.

Zardo`zlik zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi hisoblanadi.

Zardo`zlik so`zi forscha «zar-tilla», «do`zi-tikmoq» ya`ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq degan ma`noni anglatadi. Zardo`zlik san`ati uzoq tarixga ega. Zardo`zlik vatani Vavilon bo`lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo`lgach, zar ipak va jun ip bilan qo`shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashxur bo`lgan. XVII asrda yashagan Samarqandlik Fitratning asosiy kasbi zardo`zlik bo`lgan. U matolarga zar ip bilan ajoyib kashtalar tikkan. Biz zardo`zlik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, zardo`zlik buyumlari tarixiy taraqqiyotda muhim vazifalarni bajarganligini ko`ramiz.

Ayniqsa, XVIII asr ohirida Buxoro xoni Amir Abdullaxon tomonidan zardo`zlik xususiy ustaxonalari ochishga ruxsat berilishi, boshqa shaharlarga qaraganda Buxoroda zardo`zlik kasbining gullab-yashnashiga sabab bo`lgan. Natijada 25 zardo`zlik ustaxonalari ochilib, ularda ishlaydigan zardo`zlar soni 350 taga etgan. Zardo`zlik buyumlari, ulardagi naqshlar rang-barang va murakkab bo`lib, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi zardo`zlar tomonidan asrlar davomida yaratilgan.

Qadimda ham hozir ham, zardo`zlik bilan shug`ullanadigan hunarmandlarni «Zardo`zlar» deb atashgan. Qadim zardo`zning ish o`rni ko`rpachalar ustida o`tirib, yog`ochdan tayyorlangan zardo`zlik dastgohida korcho`pda tikishgan. Tikilayotgan buyumning katta kichikligiga qarab dastgox atrofiga bir nechtagacha zardo`zlar o`tirgan.

Hozirgi kunda esa zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sexlarda, zardo`zlar metallardan tayyorlangan dastgohlar atrofida stullarda o`tirib tikishadi. Zardo`zlik sexlari keng va yorug` xonalarda joylashgan bo`lishi kerak. Xona tabiiy va sun`iy yorug`lik manbalari bilan yoritilishi kerak.

Zardo`zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar uncha ko`p bo`lmaydi va ular o`ziga xos tuzilishga ega. Zardo`zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho`p bo`lib, u chambarak va xo`rakdan iborat.

**Korcho`p** forscha-so`z bo`lib, «kor-ish», «cho`p-taxta», ma`nolarini anglatadi. Chambarak uzunligi 320 sm.gacha bo`lgan 2 teng yonli yog`och dasta va ularning maxsus qismida harakatlantiruvchi silliq taxtadan iborat. Bu sexdagi zardo`zlik dastgoxlarini 2 turga bo`lish mumkin.

1. Kichik o`lchamli uy-ro`zg`or buyumlari va zardo`zlik kiyim-kechaklarini tikish uchun mo`ljallangan dastgohlar.

2. Katta o`lchamdagi zardo`zlik buyumlari, gilam, so`zana, va boshqalarni tikishga mo`ljallangan dastgoxlar.

Zardo`zlikda korcho`pdan keyin turadigan asboblari patila hisoblanadi. Patila-chorrox (4-qirrali) va nafis qilib jirvirlangan, uchi kovlanib qo`rg`oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18-20 sm.li oddiy yog`och tayyoqchadir. Patila foydalanilishiga ko`ra 2 turga bo`linadi:

**1-Engil.**

**2-Og`ir.**

Engil patilalar, oddiy zar iplar bilan tikkanda ishlatiladi. Vazni og`ir patilalar esa, ko`p ipli eshilgan ipak iplardan foydalanganda ishlatiladi. Zardo`zlikda angishvona ham keng ishlatiladi. Chunki zardo`zlik naqshlari faqat qo`lda tiqiladi. **Angishvona** forscha-so`z bo`lib, angusht-barmoq, vona-saqlovchi, ya`ni barmoqni saqlovchi degan ma`noni bildiradi.

Angishvona nina qo`lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g`ilofdir. Zardo`zlikda 2-xil angishvona ishlatiladi, biri oddiy angishvona, ikkinchisi-xalqasimon ko`rinishda bo`ladi.

### **Zardo`zlikda 2 xil turdagi ninalar ishlatiladi.**

1. Tikuv ishlari uchun 2-sonli ignalar ishlatiladi.
2. Bezatish ishlari uchun esa 1-sonli ignalar ishlatiladi.

### ***Zardo`zlikda 3 turdagi qaychilaran foydalaniladi.***

1- andoza bichishda kerak bo`lgan kaychilar.

2-pardozlashda kerak bo`ladigan qaychilar. Bu qaychi kichikroq bo`lib, dastgoh ustida ishlaganda qulay bo`lishi kerak.

3-gullarni qirqishda ishlatiladigan shturgardon qaychi, ya`ni tuyabo`yin qaychi. Bu qaychi faqat gullarni qirqishda kerak bo`ladi. Naqshlarni qirqish uchun o`rdakburun qaychi ishlatiladi.

Zardo`zlik buyumlarini tikish avvalo o`sha buyum uchun material tanlash va ularni bichishdan boshlanadi.

**Assortiment** so`zi inglizcha so`z bo`lib, to`plash saralash degan ma`noni bildiradi. Zardo`zlikda ishlatiladigan gazlamalar assortimenti 2 turga bo`linadi.

#### ***1- asosiy turdagi gazlamalar.***

#### ***2- yordamchi turdagi gazlamalar.***

Zardo`zlikda ishlatiladigan materiallarga baxmal, duxoba, satin, parcha, atlas, shoyi, movut, doka, adras, villyur, vilvet, sarja, alacha, bo`z, surp va shunga o`xshagan materiallar kiradi. Shunday ekan moxir zardo`z bo`lishni istagan har **bir hunarmand 3 hunarni bilishi lozim**: 1- rasm solish va naqsh chizish; 2- naqshlarni tushirish va qirqish; 3-qirqilgan naqshlarni zar ip bilan tikish va bezatish; 4-ramziy naqshlar (hayvonot va odamzot olamidagi shakllarni qayta ishlab hosil qilingan naqshlar).

### **O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.**

1. Zardo`zlik qanday san`at turi hisoblanadi?
2. Zardo`zlik qachon paydo bo`lgan ?
- 3.“Zardo`zlik” so`zining ma`nosi nima?
4. Zardo`zlik asosan qayerda gullab-yashnagan?

### **Dars yakuni:**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 49-50 dars.

**Mavzu :** Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari. Kartonga naqsh (gul) tushirish va qirqish. Ish o'rnini tashkil qilish

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari haqida ma'lumot berish, kartonga naqsh (gul) tushirish va qirqish, zardo'zlikdagi asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rgatish, o'quvchilar egallagan BKMni tekshirish;

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Zardo'zlik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Ish o'rnini tashkil qilish                            |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari. Kartonga naqsh (gul) tushirish va qirqish. Ish o'rnini tashkil qilish

## **ZARDO`ZLIK NAQSHLARI VA ULARNING TUZILISHLARI**

Zardo'zlik san'atida qo'llaniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islamiy bo'lib, geometrik va shunga o'hshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islamiy naqshlar turli-tuman dasta gullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shohlar, gulli guldonlardan iboratdir. Meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, anor, olcha, uzum (I-III va V-7) larni ko'ramiz. Odam va hayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo'zligida sira uchratmaymiz. Bunday naqshlar faqat inqilobdan so'nggi davrlarda, u ham bo'lsa ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarida, hususan, do'ppilarda paydo bo'ldi. Masalan, bunday do'ppilarning tepa qismida to'vus, ba'zilarining girdida qator qilib o'rdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. Bunday buyumlar faqat mahsus buyurtma asosidagina tiqilib, bozorda sotuvga chiqarilmaganini zardo'zlarning o'zlari qayd etadilar.

Buxoro zardo'zligida o'ziga hos va puhta va ishlangan atamalar bo'lib, ular zardo'zlik sharoitining ayrim bosqichlarini anglatishdan tashqari bu san'atning uzoq davrlik taraqqiyot jarayonidan ham darak berib turadi. Gullar turidagi naqshlar uchun gul atamasi, barglar turidan naqshlar uchun barg atamasi nom bo'lib qolgan. Bir qancha naqshlar guruhi uchun umumlashtiruvchi bo'lib hizmat qiladigan bunday atamalardan tashqari gul turidagilarga alohida, barg turidagilarga alohida mansub bo'lgan, aynan shularning o'zi uchun hos hisoblangan yana bir qancha nomlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, guli chorbarg to'rt yaproqli gul, guli shishbarg – olti yaproqli gul, guli hashtbarg – sakkiz yaproqli gul, lolagul va hokazolar. Yaproq'i sakkiztadan ortiq bo'lgan gullarni guli sadbarg – yuz yaproqli gul (V-2) yoki guli qosh-g'ariy - qashqargul (tabl: 73,2) deb atalgan. Keng hajmdagi gullar guli kosagul yoki guli qal'agi (V-4) degan nomlar bilan yuritilgan.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: dona-dona yaproqlar-yakkabarg, juft-juft yaproq-dubarg, uchtalik yaproqlar-sebarg, majnuntol yaprogi-bargi majnunbed (VII- 1,6,9) va hokazolar.

Aksariyat ornamental gul turlari o'zlarining uzoq davomli rivojlanishlarida shu qadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lganki, hatto ularning dastlabki islamiy shakllarini ilg'ab olish mushkul. Zamonaviy ustalar, ularni hohlagan maqomda talqin qila boshlaganlar.

Masalan, to'rt yaproqli gul naqshi huddi ana shunday o'zgarishni boshidan kechirib, endilikda u kungirador peshtoqni eslatuvchi chor madohil (to'rt darvoza) deb atala boshlandi. Agar bitta yaproqli gul naqshi ikkinchisiga ustma-ust qo'ndirilgan bo'lsa, uni chor madohili durun ba berun deyilgan (madohil arabcha-kirish degani), Bunday gullar ko'pincha mayda islamiy naqshlar bilan tiqilib, eng uchnda har ikki tomonga qarab turgan ikki dona yaproq tasviri bo'lgan. Odatdagidek, bu o'rinda ham islamiy naq o'zi uchun mutlaqo yot bo'lgan nom bilan atalgan (VII- 5, 13 va 4, 8, 12). Zardo'zlikda keng rasm bo'lgan, chekkalari hiyol yuqoriga qayrilgan nozik yaproq naqshi bargi shullukiy- zulukbarg yoki qiskacha shullukiy deb ataladi-yu (VII-7, 8, 2, 3, 10, 11), bari bir bu yaproq shaklini o'zida saqlab qolaveradi. (Islamiy naqshlar, o'z navbatida boshqa tur ishlarga ham ta'sir qilgan deb tahmin qilish mumkin. Masalan, yaproqlari nur

yo`nallshida joylashgan ko`pbargli gul naqshidan nishon deb ataluvchi tamg`a belgisi bilan qo`shib yuboriladi (tabl. 76, 1, 6, 11). Bu atama XIX asrning so`nggi o`ttiz yilligida yuzaga kelgan bo`lishi mumkin. Uning rus ordenlariga o`hshab ketishini shu bilan izohlasa bo`ladi. Demak, bu naqshlar XIX asrning ohiri va XX asrning boshlarida zardo`zlikka kirib kelgan deb aytish mumkin.

Kelib chiqishi turlicha bo`lgan gul turlaridagi bunday o`zaro bog`liklik islmiy naqsh va ularning atamalaridagi o`ziga hos xususiyatlarning yo`qolib ketishiga sababchi bo`lgan. O`rta Osiyo chorvador kabilalari milliy naqshlarida keng tarqalgan qo`chqorshohi tagalak, aftidan, bir qancha o`troq-dehqon xalqlar san`atidagi islmiy naqshlarga kuchli ta`sir qilgan. Natijada novdalardan biri yangi nom bilan birga o`ziga hos uslublashuvga ham ega bo`ldi. (Tabl: 7,3, 2, 8, 13), ba`zi hollarda u haqiqatan ham qo`chqor shohinini shakliy tasvirini eslatadi. Zardo`zlikda tagalak usuli kashtalarning orasidagi bo`sh qolgan tag zaminni to`ldirishda foydalaniladi. U o`rama-ko`rinishida, ba`zan bir juft shohning bir-biriga o`ralib turganiga o`xshagan bo`lsa, boshqa bir joyda u (ko`pincha katta-katta joylarni to`ldirilganda) huddi uzum zangidagi naychani eslatadi.

Bunga misol tarikasida ancha aniqlik qilib tiqilgan islmiy naqshli XVIII asr etiklarini keltirish mumkin (50.r.s.). Tagalak yulidagi naqshlarni ham shupda yaqqol ko`ramiz. Gullarning qirg`oqlarini aylantirib tikilgan ipda zardo`z bira to`la tag zaminni ham tagalak nusxa kashta bilan to`ldirib chiqqan.

Chinnigul (xrizantema) va qashqargul singari kashtalar nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq mulohazalar mavjud. Bunga, aftidan, xitoy chinnisidagi rasmlar asos bo`lgan bo`lsa, ehtimol. Xitoy chinnilari Urta Osiyoga ham keltirilgan va goyat qadrlanar edi. Hatto XIX-XX asrlarda Buxoroning shahar boylari uyida ular keng rasm bo`lgan edi (V-I-3,5,6). Kalak (ayollar poyafzalining tovoniga taqiladigan pagal) guli ham xitoy chippilaridagi naqshlardan olingan deb tahmin qilinadi. Mazkur gul xitoy chinnisida keng qo`llanilgan. Biz ularni IX-X asr sopolchiligida (keramikasida), VIII asr Rey sopolchiligi deb atalgan eron sopolchiligida ham uchratamiz.

Xalq amaliy bezak san`atida, jumladan, zardo`zlikda ham naqsh muhim o`rin tutadi. Chunki xalq amaliy bezak san`ati qul choklari orqali hosil qilingan naqshlar asosida badiiy ishlov berish turidir. Zardo`zlikda asosan 3 ta bosqichni bilish zarur bo`ladi: birinchi - rasm solish va naqsh chizish; ikkinchi - naqshlarni tushirishva qirqish; uchinchi - qirqilgan naqshlarni zar ip bilan tikish va bezatish.

Naqsh arabcha so`z bo`lib, "gul", "tasvir" degan ma`nolarni anglatadi. Naqsh - qush, hayvon, o`simlik, novda va boshka elementlarning ma`lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ma`lumki, har qanday naqsh namunasi o`ziga xos naqsh elementlari yig`indisidan iborat bo`ladi. Naqsh elementlari tabiatdan to`g`ridan-to`g`ri olinmasdan, qayta ishlash asosida hosil qilinadi. Qayta ishlash- o`simlik va hayvonot dunyosidagi tabiiy shakllarni ramziy shakllarga aylantirish demakdir. Qayta ishlash tabiat qonuniyatlariga asoslanadi. O`zbek xalq amaliy bezak san`atida ishlatiladigan naqshlar tuzilishiga ko`ra quyidagi 4 guruhga ajratiladi:

1. Iqlimiy (o`simliksimon) naqshlar - egri chiziqli o`simlik elementlaridan iborat.
2. Geomerik naqshlar - to`g`ri chiziqli elementlardan tashkil topgan.

3. Murakkab naqshlar - iqlimiy va gurux elementlarining chatishmasidan iborat.

4. Ramziy naqshlar (hayvonot va odamzod olamidagi shakllarni qayta ishlab hosil qilingan naqshlar).

Xalq amaliy bezak san'atining qaysi turi bupmasin, uning zaminida turli naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi. "Kompozitsiya" lotincha "kompositio" so'zidan olingan bo'lib, "to'kish, tuzish, bir-biriga solishtirish, joylashtirish, ayrim qismlarni ma'lum tartibda bir butun qilib bog'lash" kabi ma'nolarni bildiradi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko'ra uning elementlari mavjud bo'lsa, u xolda rang-barang naqsh kompozitsiyalarini tuzish mumkin bo'ladi. Naqsh elementlarining tuzilishi bo'yicha iqlimiy va geometrik naqshlar keskin farq qiladi.

Islimiy naqshlar barg, gul, novda, kurtak va boshqa elementlardan tuzilsa, geometrik naqshlar guruxlar va ularning o'zaro birikmalaridan iborat bo'ladi. Quyidagilarga e'tibor bering:

1. **Barg**-uni elementlarining oddiy va murakkab ko'rinishlari mavjud: oddiy barglar, shobarg, qo'shbarg, uchbarg va h. Bundan tashkari bodom bargi, arra tishli va tulkinsimon kurinishlarda ham uchraydi.

2. **Gul** - islimiy naqsh elementa bo'lib, ular kompozitsiyaning markazida joylashadi. Ular ham oddiy va murakkab bo'ladi.

3. **Novda**- o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, gul, barg, meva va boshqa elementlarni o'zaro bog'lab turadi. Novda nozik va ravon yo'nalishlari bilan alohida shakllarni yasaydi. Tabiatda barcha daraxt va o'simliklar pastdan tepaga, ya'ni bir tomonlama harakat qiladi.

#### **O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.**

1. Gazlamalar assortimenta deganda nimani tushunasiz?
2. Gazlamalarni necha turga bo'lamiz?
3. Asosiy va yordamchi gazlamalarga misollar keltiring.
4. Nima uchun zardo'zlikda kartondan foydalanamiz?
5. Dastlab karton o'rniga nimadan foydalanilgan?
6. Zar ipning turlari necha xil bo'ladi?
7. Ipning xossalarini gapirib bering.

#### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 51-52 dars.**

**Mavzu :** Bo'zni korcho'pda taranglab tortish. Zamindo'zi va guldo'zi usulida tikishni o'rgatish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga zardo'zning ish o'rni va uni tashkil qilishni o'rgatish;

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmi retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

**Darsning borishi:**


| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Bo'zni korcho'pga taranglab tortish                   |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Bo'zni korcho'pda taranglab tortish. Zamindo'zi va guldo'zi usulida tikishni o'rgatish



Zardo`zlikda tikish usullari ularda ishlatiladigan zar iplarning tuzilishi va choklarning ko`rinishiga ko`ra 3 turga bo`linadi.

**1 - zardo`zi - guldo`zi tikish turi**

**2 - zardo`zi - zamindozi tikish turi**

**3 - birishimdo`zi tikish turi.**

Guldo`zi usulining umumiy xususiyati shundaki, charm, korton, qalin qog`ozdan qirqilgan naqshlar, gullar ustiga turlicha xolatdagi zar iplar bilan butunlay qoplab tiqiladi. Guldo`zi so`zi aralash so`z bo`lib, gul-gul, do`zi-forscha tikmoq degan ma`noni bildiradi.

Zardo`zlik ham hunar ham san`atdir. Goh do`ppi bo`lib boshga qo`nadi sumkachaga ilingan, poyabzal bo`lib oyoqqa ilingan.


Zardo`zlikda korchupdan keyin turadigan asboblardan biri-patila hisoblanadi. Patila-chorrah (turt kirrali) vanafis kilibtarashlangan, ichi kavlanib, qo`rg`oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18-20 sm li oddiy yog`och tayoqcha. Patila zar iplarni zich va bir tekis qilib o`rashni ta`minlagan, bu bilan tikilayotgan zardo`zning bir tekis chiqishiga erishilgan, zar ipning chatilib isrof bo`lishiga yo`l qo`yilmagan. Patila foydalanish o`rniga qarab ikki turga bo`linadi: yengil va og`ir. Patilalar hozirgi davrda marmartoshlardan ham tayyorlanmoqda. Ular silliqligi va vazni - ogirligi bilan ajralib turadi.

Zardo`zlikda angishvona ham zarur. Chunki zardo`zlik naqshlari faqat qo`lda tikiladi. **Angishvona** forsha so`z bo`lib, “angusht” – barmoq “vona” - saqlovchi, asrovchi, ya`ni ”barmoqni asrovchi” degan ma`noni bildiradi. Angishvona igna qo`lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g`ilofdir. Uning ustki va yon tomonlarida igna o`yib ketmasligi uchun chuqurchalar uyilgan.

Zardo`zlikda barcha jarayonlar kulda bajariladigan choklar orqali amalga oshiriladi, shuninguchun ignalar va ularni tanlay bilish muhim ahamiyatga ega. Zardo`zlikda asosan ikki xil turdagi ignalar ishlatiladi(1-rasm):

1. Tikish ishlari uchun 2-sonli ignalar ishlatiladi.
2. Bezatish uchun esa 1-sonli ignalar ishlatiladi.





**1-rasm.**


1. Tikish ishlari uchun 2-sonli ignalar ishlatiladi.
2. Bezatish uchun esa 1-sonli ignalar ishlatiladi.

Zardo`zlikda 3 turdagi qaychilardan foydalaniladi. (2-rasm)

3. Andoza bichishda kerak bo`ladigan qaychilar. Bunday qaychilar kattaroq va o`tkirroq bo`lishi zarur.

4. Pardoqlashda kerak bo`ladigan qaychilar. Bu qaychilar kichikroq bo`lib, dastgoh ustida ishlashga qulay.

5. Gullarni qirqishda ishlatiladigan qaychi shturgardon, ya`ni tuyabo`yin qaychi. Bu qaychi faqat gullarni qirqishda kerak bo`ladi.



**2-rasm.** 1-naqshlarni qirqish uchun o`rdakburun qaychi; 2-naqshlarni qirqish uchun tuyabuyin qaychi; 3-pardoqlash uchun qaychi; 4-bichish uchun qaychi.

**Amaliy ish.** O`quvchilar oldindan tayyorlab qo`yilgan zardo`zlikda ishlatiladigan asboblarni bilan yaqindan tanishtiriladi. Ularni qanday ishlatilishini o`rganadilar.

**Darsni yakunlash.** Dars yakunida o`qituvchi o`quvchilardagi faoliyatini baholaydi. Mustahkamlash sifatida quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Korcho`pning ma`nosi qanday va uning vazifasi nimadan iborat?
2. Chambarak nima?
3. Xo`rakning vazifasi nimadan iborat?
4. Patila deganda nimani tushundingiz? Uning vazifasi qanday?
5. Angishvona deb nimaga aytiladi?
6. Zardo`zlikda qanday ignalardan foydalaniladi?

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 53-54 dars.****Mavzu :** Choynak yopqichining gul naqshini zar ipdan tikish.**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga choynak yopqichga guldo`zi usulida naqsh tikishni o`rgatish;**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Choynak yopqich gulini tikish                         |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

1. Zardo`zi uy-ro`zg`or buyumlarini tikish texnologiyasi haqida gapirib bering.
2. Andozani bichishda nimalarga e`tibor beriladi?
3. Tikish usulini gapirib bering.

**Yangi dars bayoni:** Choynak yopqichining gul naqshini zar ipdan tikish

Biz choynak yopqichni guldo`zi usulida tikishdan oldin, zardo`zlikda naqshlarni tikish usullari va ularning tasnifi bilan tanishib chiqamiz. Tikish usullari turkumi zardo`zlikning asosiy usullaridan bo`lib, o`zining murakkabligi bilan zardo`zlikning boshqa usullaridan ajralib turadi. Tikish usullari zar iplarni turli choklar yordamida turlicha ko`rinishlarda naqshlar ustiga mustahkamlash bilan hosil qilinadi. Tikish usullari ulardan foydalanish o`rniga, ularda ishlatiladigan zar iplarning tuzilishi va choklarning ko`rinishiga ko`ra uch turga ajratiladi:

**1. Zardo`zi guldo`zi tikish turi.** Bu turga kiruvchi usullarning umumiy xususiyati shundaki, charm, karton, qalin qog`ozdan qirqilgan naqshlar - gullar usti turlicha xolatdagi zar iplar bilan butunlay ko`plab tikiladi. "Guldo`zi" so`zi aralash so`z bo`lib, "gul" - gul, "do`zi" - forscha tikmoq ya`ni "gullarni tikmoq" degan ma`noni anglatadi. Bu usullar aslida zardo`zligimizga hos bo`lmasa-da, ancha keng tarqalib bormoqda.

**2. Zardo`zi-zamindo`zi tikish turi.** "Zamindo`zi" forscha "zamin" - yer osti, tagi, "dozi" - "tikmoq" degan ma`nolarni anglatadi. So`zning ma`nosidan ko`rinib turibdiki, zardo`zi tikish usullari naqshlar tagini yoppasiga zar iplar bilan to`ldirib tikish va turli naqshlar hosil qilish vazifasini bajaradi.

**3. Zardo`zi bires himdo`zi tikish turi.** Bu tur usullari zardo`zlarning o`zlari tikayotgan gullarning aynan tabiatdagiga o`xshashiga intilishlaridan kelib chiqqan. Bunda naqshlar ipak iplar bilan tikilgan.

**Amaliy ish.** O`quvchilar dastgoh atrofiga o`tirib, guldo`zi usulda tikishni boshlashadi. Mashg`ulot davomida o`quvchilarning faoliyati kuzatib va baholab boriladi, tikishga qiynalgan o`quvchilarga qayta (joriy) yo`riqnoma va yordam beriladi, texnika xavfsizligi qoidalari eslatib turiladi.

**O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.**

1. Ish o`rnini tashkil qilishda nimalarga e`tibor beriladi? 2.
- Zardo`zlik xom-ashyolariga qanday omillar ta`sir etadi?
3. Bo`zni korcho`pga taranglab tortishni tushuntirib bering.
4. Korcho`p bilan ishlashda qanday texnologik qoidalarga e`tibor beramiz? 5.
- Tikish usullarini sanab bering.

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 55-56 dars.**

**Mavzu :** Tikilgan mahsulotni korcho'pdan tushirib, tayyorlash texnologiyasini o'rganish (astar tikish). Buyumga oxirgi ishlov berish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga choynak yopqichga ishlov berishni o'rgatish; o'quvchilarning zardo'zlik bo'yicha olgan nazariy bilim, mehnat ko'nikmalarini sinab ko'rish

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga o'quvchilarda badiiy didni, nafosat tuyg'usini o'stirish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Buyumga oxirgi ishlov berish                          |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Tikilgan mahsulotni korcho'pdan tushirib, tayyorlash texnologiyasini o'rganish (astar tikish). Buyumga oxirgi ishlov berish.

Zardo`zi uy-ro`zg`or buyumlarining xususiy texnologiyalari ham ularning inson turmushidagi ahamiyatiga ko`ra shakllangan. Inson turmushida ancha muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Foydalanilayotganda tezda ko`zga tashlanib turadigan uy-ro`zg`or buyumlari tayyolangan xususiy texnologiyalari bir muncha soddaroq tuzilishga ega. Masalan, muhr, choy, soat, pul solinadigan xaltalar bunga misol bo`ladi. Bunday buyumning bichimi to`g`ri chiziqdan iborat bo`lib, ular 2 bo`lak avra, 2 bo`lak astardan iborat bo`ladi. Avrani bichayotganda gazlamaning tuklari yo`nalishiga e`tibor berish kerak. Buni gazlamaning tovlanishiga qarab yoki qo`l bilan siypab bilish mumkin.

Buyumlarga g`ilof yoki yopqich (qopqoq bo`lib xizmat qiladigan, tuzilishi avra, astar va ular orasida qo`shimcha qism - karton yoki qavat paxta joylashtirilgan uy-ro`zg`or buyumlaridan biri choynak yopqichdir. Zardo`zi choynak qopqoq bugungi kunda ham uy-ro`zg`orda ishlatiladi. Uning tuzilishi har xil bo`lishi mumkin, lekin o`lchamlari o`zi mo`ljallab tikilayotgan choynakning o`lchamiga mos bo`lishi darkor. Choynak yopqich choynak ustiga yopiladigan va uning tagiga qo`yiladigan qismlardan iborat. Bunday badiiy buyumlar kichik shaklli andozalardan iborat bo`lgan ligi uchun chambarakning xohlagan bo`sh joyiga joylashtirib tikilaveradi. Ularni joylashtirayotganda mustahkamlanadigan naqshning tuzilishiga e`tibor berish kerak. Ularga zardo`zi usullarida naqshlar tikilib bezatilgan.

**Amaliy ish.** O`quvchilar oldindan tayyorlab qo`yilgan dastgohda materiallar va ish asboblardan foydalanib, ish urnini qanday tashkil etishni, qaysi asboblarni qaysi tomonga qo`yishni o`rganadilar. Bichilgan choynak yopqichni dastgohga o`rnatib, andoza yopishtiradilar va zar ip bilan tikishni mashq qiladilar.

Dars davomida o`quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalarini eslatib turiladi.

**Xavfsizlik qoidalarini.** Zardo`zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar o`tkir uchli asboblardan bo`lib, ular bilan ishlaganda ehtiyot bo`lish, texnika xavfsizligi qoidalariga qat`iy rioya qilish zarur. Avvalo, ularni saqlash uchun alohida moslama bo`lishi darkor. Ignalar bilan ishlayotganda, albatta ularni igna qadagichparga qadab qo`yiladi. Ulardan foydalanganda angishvona kiyib olinadi. Ignaga ip o`tkazilayotganda hech qachon ularni lab orasida ushlab turmaslik kerak. Nafas olayotganda yoki gapirmoqchi bo`lganda ular bexosdan ichga ketib qolishi va inson hayotini xavotirga qo`yishi mumkin. Qaychilar ham uchi o`tkir asboblardan biri bo`lib, ulardan noto`g`ri foydalanish o`zigagina emas, boshqalarga ham zarar keltirishi, ish sifatining buzilishiga, ishning to`xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

**O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.**

1. Zardo`zlikda qanday gazlamalardan foydalaniladi?
2. Zar ipning turlarini sanab bering.
3. Ignalarning turlari va ularni ishlatish usullari qanday?
4. Zardo`zlikda ishlatiladigan naqsh turlarini sanab bering.
5. Xavfsizlik qoidalarini tushuntirib bering.
6. Bo`z korcho`pga qanday tortiladi?

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

## 6-sinf. № 57-58 dars.

**Mavzu :** Nozmunchoq (biser) va undan foydalanish haqida ma'lumot. Nozmunchoq tikish uchun zaruriy xom-ashyo va moslamalar. Nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar tikish

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga nozmunchoq tikishni (biser) va undan foydalanish haqida ma'lumot berish. Nozmunchoq tikish uchun zaruriy xom-ashyo va moslamalar bilan tanishtirish. Nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar tikishni o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar, retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Nozmunchoq bilan ishlash                              |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni** Nozmunchoq (biser) va undan foydalanish haqida ma'lumot. Nozmunchoq tikish uchun zaruriy xom-ashyo va moslamalar. Nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar tikish

Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi mavjud bo'lganligi kabi nozmunchoq va pistonlarni tikish usuli ham avloddan-avlodga o'tib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Piston va nozmunchoqlar asosan ayollar-qizlar va hozirgi zamonaviy uslubda modaga binoan erkaklar sarochka yoqalarida, manjetlari, kostyum yoqa va yenglarini bezashda qo'llanilmoqda.

Kashta kabi bu ham goh moda bo'lib kirib keladi, goh chiqib ketadi. Yaqin-yaqinlargacha kashta va munchoqlar bilan bezatishni ortiqcha ish va ortiqcha hasham deb qaralgan. 70 chi yillarga kelib kashta yana moda bo'lib qaytdi. Hattoki bu usulda bezatilgan mahsulotlar o'ta haridorgir bo'ldi.

Nozmunchoqlar bilan bezash insonni aqlan chidamli, sabr-toqatli, e'tiborli, nazokatli, didli bo'lishga undaydi. Ko'pincha ayollarimiz asab kasalliklariga duchor bo'lganda vrach ularga to'qish, kashta tikish, munchoq va pistonlar tikishni tavsiya etadi, chunki bu ish asablarni tinchlantirishda juda ham yaxshi mashg'ulot bo'lib hisoblanadi. Bu ish bilan band bo'lgan kishining hayolida hech qanday yomon o'y bo'lmaydi, u faqat rasmlarni joylashtirish haqida o'ylaydi.

Biz tez o'zgarib turgan, kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir davrda yashab kelmoqdamiz. Har bir ayolning dunyocha tashvishi bor, ammo biz bunga qaramasdan o'zimizni o'zimiz yuqoriga ko'tarmog'imiz, go'zalligimizni yanada boyitmog'imiz, uni xilma-xil rango-rang bezak, naqshlar, har xil shakldagi munchoq va pistonlar bilan to'ldirmog'imiz kerak. Mana shunday bezak ishlarni bajarishda bizga o'quv moduli yordam beradi.


Biror bir narsani tikishdan oldin, uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak.

Kompozitsiya xarakteri ko'proq rasmga naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi.



**1-rasm. Naqsh munchoqli bezaklarning turlari**

1-rasmda yo'l ichidagi naqshbezaklar ifodalangan bo'lib, har bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bitta motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator hosil qiladi. Mutlaqo bir xil elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi. (2-rasm).



**2-rasm. Rapport takrorlanish munchoqli bezak guli**

Buyumning butun yuzasi yoki biron qismi naqshli munchoq bilan bezatilishi, buyumning yuzasi bo'ylab ba'zi naqsh mativlari sochilgan bo'lishi mumkin.

Piston va munchoqli naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va h.klar) dan, shuningdek to'liqsimon siniq chiziqlar, spiralardan, o'simlik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar) dan shuningdek umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan bezakda motivlar qaytarilmaydi. Bezak simmetrik va assimetrik asosda tuzilishi mumkin. Bunday bezak ham naqshli bo'ladi.

Piston va munchoqlar bilan bezash rang bilan chambarchas bog'liqdir. Munchoqlarni tanlashda iplarni, ranglarning uyg'unlashuvini va ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. Buning uchun loqal ranglarning asosiy xususiyatlari va o'zaro ta'siri-ranglarning uyg'unligi, ularning bir xil tushishi bilan qisqacha tanishib chiqish zarur.

### **Munchoqlarni tikish uchun asboblari va moslamalar**

Qo'lda piston va munchoqlarni tikish uchun juda oddiy asboblari kerak. Bular maxsus ingichka igna, angishovna, qaychi, santimetr, o'tkir uchli dukcha, kergi, flizilin yoki dublirin kerak bo'ladi.

O'tilgan dars savol-javoblari asosida mustahkamlanadi. Test otkaziladi

#### **1. Iroqsimon birikma qaviq qanday qaviq turiga kiradi?**

- A) vaqtincha qaviq;
- B) doimiy qaviq;
- C) bezak qaviq;
- D) murakkab qaviq.

#### **2. Zanjirsimon yo'rmash baxyaatori, nechta ipli bo'ladi?**

- A) bir ipli, yetti ipli;
- B) ikki ipli, uch ipli, to'rt ipli;
- C) ikki ipli, bir ipli;
- D) uch ipli, to'rt ipli, bir ipli.

#### **3. Bezak bo'laklari qanday tayyorlanadi?**

- A) o'ngini ichiga qaratib 0,5-0,7 sm ag'darma chokda;
- B) teskari tomondan 1,5 sm bostirma chokda;
- C) o'ngini ichiga qaratib, biriktirma chokda;
- D) teskari tomondan tutashtirma chokda.



**4. Biser va munchoqlarni ishlash uchun matoga nima qo'yiladi**

- A) yelimli qotirma flizilin; B) astar;  
C) dubrilin; D) hamma javoblar to'g'ri.


**5. Kiyim qaysi bo'laklariga bezak ishlov beriladi?**

- A) koketka, yoqa; B) ko'krak, cho'ntak;  
C) etak, yeng; D) hamma javoblar to'g'ri.

**6. Bezakni qanday turlari mavjud?**

- A) bo'rtirma; B) yo'rma tikma;  
C) yelimlama; D) hamma javoblar to'g'ri.

**7. Quyidagi rasmda biserning qaysi turi tasvirlangan?**



- A) burtma; B) yo'rma; C) quyma yelimlama; D) chatish qadash.

**8. Chok turlaridan qaviq chok bezash tikishda qaysi bezak turida ishlatiladi?**

- A) sanama tekis chokda; B) iroqsimon chokda;  
C) suv chok usulida; D) hamma javoblar to'g'ri.

**9. Biser tikishda quyidagi asbob va moslamalardan qaysi biri ishlatiladi?**

- A) qaychi, andoza, bo'lak, santimetrli lenta  
B) qaychi, tikuv mashina, angishovna  
C) o'tkir uchli dukcha, kergi, igna, angishovna  
D) hamma javoblar to'g'ri

**10. Kiyimga bezak qanday tanlanadi?**

- A) estetik talabga asosan; B) moda yo'nalishiga asosan;  
C) ergonomik talabga asosan; D) hamma javoblar to'g'ri.

#### TEST JAVOBLAR (kalit)

|    |    |    |    |    |    |    |    |    |     |
|----|----|----|----|----|----|----|----|----|-----|
| 1. | 2. | 3. | 4. | 5. | 6. | 7. | 8. | 9. | 10. |
| C  | B  | B  | D  | D  | D  | D  | D  | D  | D   |

#### Dars yakuni.

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**Mavzu :** Milliy bosh kiyimlardan do'ppi tikish texnologiyasi. Do'ppini bichish. Bo'laklarga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikib, tugatish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash.

### **7-nazorat ishi**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga milliy bosh kiyimlardan do'ppi tikish texnologiyasini, do'ppini bichishni, bo'laklarga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikib, tugatishni, bir-biriga ulashni, ishni yakunlashni o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar, retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

### **Darsning borishi:**

| No | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|----|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1  | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2  | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzard muammolar haqida suhbat                       |
| 3  | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4  | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5  | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6  | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7  | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8  | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | 7-nazorat ishi do'ppi tikish                          |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Milliy bosh kiyimlardan do'ppitikish texnologiyasi. Do'ppini bichish. Bo'laklarga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikib, tugatish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash.

**Do'ppido'zlik san'ati haqida ma'lumot.** Do'ppi O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyimi. Do'ppi dastlab Eronda va turkiy xalqlarda o'rtasida tarqalgan. Rossiyada esa XIII asrlarda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelib, baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zig'ir bilan do'ppi gullari tikilgan.

Do'ppi bosh kiyimi hisoblanib, boshni sovuqdan, quyosh nurlaridan himoya qilgan. O'zbekiston sharoitida ko'p kiyiladi. O'zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Chahrisabz, Andijon do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Respublikamizning barcha tumanlarida do'ppi kiyiladi. Iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ltirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi ajratish uslubiga ega, ular bir-biridan farqlanadi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega.

**Kuloh** - konussimon bosh kiyimi. U asosan darvishlar qalpog'i, uning matohi to'q uchburchak parchalar shaklida bichilib, yoppasiga tikiladi. Kuloh - erkaklar bosh kiyimi, hozir juda kam uchraydi.

**Araqchin** –sharsimon do'ppi Uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar qo'lda, xiyol bosma, chakma tur, iroqi chok usullarda tikiladi.


**Tus do'ppi** - keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi Chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarni bitta o'zida sakkizta chok usuli qo'llaniladi: zanjira, to'g'ri chok, pilta, kungura, taroq, etalanma, pildiroq, ova.

Chust do'ppining tepasi kizakdan kvadrat shaklida bo'rtirib chiqib ajrim shar ko'rinishida bo'ladi. Do'ppilar uchta qism: tepa, kizak va jiyakdan iborat. Ana shu qismlari qanday materialdan, qay tarzda tayyorlanishi, bezatilishi, tiqilish uslubi va usullariga ko'ra farqlanadi. Shu o'ziga xos usul va uslubda tayyorlanadigan do'ppilar shu erning nomi bilan mashhur bo'lgan. O'g'il bolalar va erkaklar kiyadigan Toshkent Chust, Marg'ilon do'ppilari sidirg'a rangli (yashil, qora, to'q binafsha, jigarang) baxmaldan tayyorlanadi. Toshkent do'ppilarining ikki xili: dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan turi mavjud.

**2. Do'ppi turlari va tayyorlanishi.** Do'ppilarni tepa va kezaklarini bichishda odatda andozalardan foydalaniladi. Karton yoki qalinroq qog'ozga doira chiziladi. Agar 54-o'lchamli do'ppi tikiladigan bo'lsa, doiraning diametri 20,5 cm bo'ladi. Do'ppining o'lchami oshgan sari 2 mm kengaytiriladi. 55-o'lchamli do'ppi uchun doiraning diametri 20,7cm bo'ladi. Doira to'g'ri chiziq bilan 4 ga bo'linadi. Kvadrat xosil bo'lgandan keyin, chetlari qirqib tashlanadi(1-rasm). Kizak yoni 4 cm, uzunligi 56 cm lenta shaklida bichiladi. Astar avraga nisbatan 0,5 cm enliroq va uzunroq bo'ladi. Do'ppi boshga mos tarzda chuqurroq yoki yassiroq bo'lishi mumkin. Bunda kizak enli yoki ensiz olinadi. Tepa avra astarga xomaki qaviq bilan ko'klab chiqiladi. Pilta uchun choklar tikilgandan so'ng bu choklar so'tib tashlanadi. Tepa markazidan chetga tomon bir me'yorda tepchima chok bilan tikiladi. Choklar orasiga piltalar ham ko'p qo'yiladi. Toshkent do'ppilari kir bo'lsa yuviladi. Bir oz qurigach yana elimlab taxtakachga qo'yiladi. Quritilgandan so'ng kiyiladi. Chust va Marg'ilon do'ppilari yuvilmaydi. Kimyoviy yo'l bilan tozalanadi. Uy charoitida aseton yoki aviabenzin bilan tozalanadi.

Do'ppi changdan, namdan saqlanadi. Kiyilmagan paytda taxlab, o'rab qo'yiladi. Taxlanmaydigan do'ppilar doka yoki oq qog'ozga o'rab qo'yiladi.

**Do'ppi** – bosh kiyimi boshni salqindan, quyosh nuridan himoya qiladi. O'zbekiston sharoitida ko'p kiyiladi. U 3 qismdan – tepa, kizak va jiyakdan iborat. Ana shu qismlar qanday materialdan qay tarzda tayyorlanishi, bezatilishi, tikilish uslubi va usullariga ko'ra farqlanadi, turli joylarda shu yerga xos usulda tayyorlanganidan do'ppilar ko'pincha shu yerning nomi bilan mashxur bo'lgan. Do'ppilarni o'g'il bolalar, erkaklar, qizlar va ayollar kiyadilar. Toshkent, Chust, Marg'ilon, Buxoro do'ppilari keng tarqalgan. Qizlar do'ppilarining tepa va kizak qismlariga nozik kashta, iroqi kashta, zardozlik kashtalaritkiladi. Bu do'ppilar bir-biridan nomlari bilan ajralib turadi. Iroqi do'ppi, Bahor do'ppi, Zar do'ppi. Qizlar do'ppisini tikish uchun bosh aylanasi o'lchanadi. Do'ppilar do'ppisini tepa qismi dumaloq va kvadrat shaklda bo'ladi. Ularni bichishda andozadan foydalaniladi. Karton yoki qalinroq qog'ozga pargor (sitkul) yordamida doira chiziladi.



- Bichilgan astar va avra teskari tomondan yoki o'ng tomondan ichiga karton qo'yilgan holda tikiladi. Do'ppining tepa va kizak qismi birlashtirilib, qo'shib tikiladi. Kizak yoni ulanadi va mashinada tikiladi. Har bir ish avval qo'lda so'ngra mashinada tikiladi. Do'ppi tayyor bo'lgach noz munchoqlar orqali bezak beriladi. Tayyor do'ppi ichiga suyuq yelim surtib quritiladi. Bu ishlarni do'ppi tikuvchi do'ppido'zlar, kashtachi qizlar amalga oshiradilar. Do'ppini namdan, changdan saqlah kerak, Kiyilgan paytlarda taxlab o'rab qo'yish, taxlanmaydiganlarini toza doka yoki oq matoga o'rab osib qo'yish kerak.

O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 61-62 dars.**

**Mavzu :** Qiz bolalar sumkchasini tikish texnologiyasi bilan tanishtirish. Andoza tayyorlash, zaruriy gazlama, iplar tanlash, sumkachani bichish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga qiz bolalar sumkchasini tikish texnologiyasi bilan tanishtirish, andoza tayyorlash, zaruriy gazlama, iplar tanlash, sumkachani bichishni o`rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1. Turli xil munchoqlar, plakchalar turlaridan namunalar. Ish qutisi, ko`rgazmali qurollar turlari, sumkacha qismlariga bezak berish  
2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning qurollar turlari.** sumkacha qismlariga bezak berish

**Darsning uslubi:** Amaliy mashg`ulot, aqliy hujum, savol-javob, guruhlar bilan, jamoa bilan ishlash

#### **Darsning borishi:**

| No | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|----|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1  | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2  | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3  | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4  | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5  | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6  | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7  | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8  | Amaliy mashg`ulot                                          | 45 daqiqa | Qizlar sumkasini tikish                               |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Dars ikki guruhga ajratilib, musobaqa tarzda tashkil qilinadi.

1. “Tikuvchi” guruhi

2. “Bichuvchi” guruhi

## Dars shiori :

Hunarni asrabon netgumdir, oxir, Olib tuproqqamu ketgumdir, oxir.

1. “Tikuvchi”-Turli xil fasondagi kiyimlarni tikadigan, gazlama bilan ishlovchi yaratuvchan qobilyatli kishilar

2. “Bichuvchi”- tikuvchilar uchun turli fasonli kiyim va buyumlarni bichib beruvchi, gazlama bilan ishlovchi kishilar

❖ “O`yla izla top”

❖ Tarmoqlash usuli.

❖ Amaliy mashg`ulot.

❖ “Qo`shningni top” usuli

❖ Ozgina o`ylasang, bilib olasan, fikrlasang topib olasan.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**“Tikuvchi”** guruhiga saollar

1.Do`ppi qanday bichiladi?

2.Do`ppi qanday kiyim turiga kiradi?

3.Hunar haqida qanday maqol ayta olasiz?

4.Do`ppini qanday turlarini bilasiz?



**“Bichuvchi”** guruhiga savollar

1.Zardo`zi so`zining ma`nosi nima?

2.Do`ppini qanday usullarda bezash mumkin?

3.Qanday gazlamalardan do`ppi tikiladi?

4.Sanitariya gigiyena deganda nimalarni tushunasiz?

5.Biserda gul to`qishda qanday ish qurollar kerak bo`ladi ?

**Yangi dars bayoni:** Qiz bolalar sumkachasini tikish texnologiyasi bilan tanishtirish. Andoza tayyorlash, zaruriy gazlama, iplar tanlash, sumkachani bichish.

Sumkalar ishlatilish maqsadiga ko`ra turli tuman bo`ladi. Ayollar, qizlar sumkachalari.

Sumkachasining o`zi ham bir necha ko`rinishda bo`lishi mumkin. Sumkalar kishining didiga dunyoqarashiga mos ravishda tanlanadi. Bundan tashqari sumkani turli usullarda bezash mumkin. Masalan kashta usulida, zardo`zi usulida bundan tashqari biser plakchalar yordamida bezash mumkin. Demak xalq hunarmandchik bezak usullarining barcha usullaridan foydalanish mumkin.



Yangi mavzuni “Qoshningni top” o`yini orqali mustahkamlaymiz  
**“Tikuvchi”** guruhi uchun.

1. Sumkacha asosan qanday gazlamalardan tayyorlanadi?
2. Siz qanday sumkachalarni hohlaysiz?
3. Sumka tikishda qanday ish qurollari kerak bo`ladi
4. Ish vaqtida qanday qoidalariga amal qilish zarur.
5. Sumkalarning qanday turlari bor?

**“Bichuvchi”** guruhi uchun.

1. Sumkaqchani modellashtirish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Andaza qanday tayyorlanadi?
3. Sumkani bezashda qanday bezak ashyolari ishlatiladi?
4. Sumka qanday milliy gazlamalardan tayyorlanishi mumkin?
5. Sanitariya gigiyena deganda nimalarni tushunasiz?

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

**6-sinf. № 63-64 dars.**

**Mavzu :** Sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikish.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikishni o`rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmi retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashgulot                                           | 45 daqiqa | Sumkachani bezash                                     |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikish.



Sumka tikish uchun birgina o'lcham asosida emas balki, turli shakl, usulda tayyorlash mumkin.

Sumkachani biser munchoqlar yordamida bezash uchun gazlamaning turiga, rangi ga mos munchoqlar, r拉克chalar tanlab olinadi. Ularni issiq yelim yoki igna yordamida tikib mustahkamlash mumkin. Ularni biror shakl chizib shu shkl bo'icha yoki, ixtiyoriy bezash usuluda bezash mumkin.

Sumkachani bezash davomida **texnika xavfsizlik qoidalariga,**

**Sanitariya gigiyena** talablariga amal qilish zarur.

Bundan tashqari ish vaqtida, qo'l ishlaridan foydalanisda tikish qoidalariga amal qilish zarur.

Ish o'rnini tashkil qilishda barcha asbob-uskunalarni tartib bilan joylashtirish, maxsus idishlarga solingan munchoqlardan foydalanish zarurdir.



O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

**6-sinf. № 65-66 dars.**

**Mavzu :** Qiz bolalar sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston bilan tikish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash. **8-nazorat ishi**

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O'quvchilarga qiz bolalar sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston bilan tikishni, bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlashni o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o'rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarda chevarchilikka bo'lgan qiziqish bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo'naltiruvchi maqsadi:** O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish bilan birga chevarchilikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko'rgazmalar, rasmlar retseplar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

**Darsning borishi:**

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O'quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo'lish |
| 2 | Ma'naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O'tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O'rgat-o'rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o'quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O'quvchilarni rag'batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Sumkachaga oxirgi ishlov berish                       |

**Tashkiliy qism.** O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma'naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo'layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o'tkaziladi.

Keyin o'tilgan darslar bo'yicha savol-javoblar o'tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Qiz bolalar sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston bilan tikish. Bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash.

O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.



Ranglarni uyg'unlashtirish uchun ranglar doirasining 1/4 qismi ichidagi bir-biriga yaqin rang turlarini (turdosh ranglar mosligi), masalan, sariq bilan sarg'ish – yashil rangni olish mumkin. Uchta kontrast ranglar (yoki ularning turlari) birga qo'shilishi chiroyli original chiqadi. Bu ranglar – ranglar doirasi, ichiga chizilgan, teng tomonli yoki teng yonli uchburchaklarning uchida yotgan ranglardir.

Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak, rang buyumning shaklini yoki katta-kichikligini o'zgartirib ko'rsatishi mumkin.

Piston va munchoqlarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo'ljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylashishiga bog'liq bo'ladi.

O'tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

### **Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O'tilgan mavzu bo'yicha o'rganib kelish.

## 6-sinf. № 67-68 dars. Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi.

**Mavzu :** Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalarini. Yamoq solish texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot: yamoq solish

**Darsning ta'limiy maqsadi:** O`quvchilarga kiyimlarni saqlash usullarini, kiyimga qarab turish qoidalarini va yamoq solish texnologiyasini o`rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Tikuvchilik ishlarini o`rganish bilan birga nafosat bilimini berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarda chevarchilikka bo`lgan qiziqish bilim ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning kasb – hunarga yo`naltiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirish bilan birga chevarchilikka bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish.

**Dars jihozi:** 1 Ko`rgazmalar, rasmlar retseptlar.

2 Qiziqarli chevarchilik haqida kitoblar.

**Darsning turi:** Suhbat, bahs-munozarali dars.

**Darsning uslubi:** Savol –javob, aralash dars.

### Darsning borishi:

| № | Darsning bosqichlari                                       | Vahti     | Darsning mazmuni                                      |
|---|------------------------------------------------------------|-----------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy qism                                             | 2 daqiqa  | O`quvchilarni darsga jalb qilish, guruhlariga bo`lish |
| 2 | Ma`naviyat daqiqasi                                        | 10 daqiqa | Dolzarb muammolar haqida suhbat                       |
| 3 | O`tilgan mavzuni mustahkamlash                             | 10 daqiqa | Savol-javob                                           |
| 4 | Yangi mavzu bayoni                                         | 10 daqiqa | Yangi tushuncha berish                                |
| 5 | Yangi darsni mustahkamlash                                 | 5 daqiqa  | Savol-javob                                           |
| 6 | “O`rgat-o`rgan”                                            | 5 daqiqa  | Video rolik                                           |
| 7 | Dars yakuni, uyga vazifa belgilash, o`quvchilarni baholash | 3 daqiqa  | O`quvchilarni rag`batlantirish                        |
| 8 | Amaliy mashg'ulot                                          | 45 daqiqa | Yamoq solish                                          |

**Tashkiliy qism.** O`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

**Ma`naviyat daqiqasi.** Mamlakatimizda bo`layotgan kunlik yangiliklar haqida suhbat o`tkaziladi.

Keyin o`tilgan darslar bo`yicha savol-javoblar o`tkaziladi.

**Yangi dars bayoni:** Kiyimlarni saqlash usullari. Kiyimga qarab turish qoidalari.

Yamoq solish texnologiyasi. Amaliy mashg'ulot: yamoq solish

O`tilgan dars savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

**Dars yakuni.**

Dars davomida bajarilgan ishlarni tekshiraman. Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiraman va baholayman.

**Uyga vazifa:** O`tilgan mavzu bo`yicha o`rganib kelish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.. Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyasi. Toshkent-2013yil.
3. Sharipov Sh. va boshqalar Mehnat ta'limi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent-2012 yil.
4. Mavlonova R., Mannopova I. Mehnat 4-chi sinf uchun darslik. Toshkent-1995 yil.
5. Poshshaxo'jayeva Sh., Abduraxmonova mehnat ta'limi 5-sinf. Toshkent-1998 yil.
6. Maktab va hayot jurnallari.
7. Internetdan olingan ma'lumotlar.



